

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/380792701>

YUNOGOGIKA O'QUV QO'LLANMA (I qism)

Book · December 2023

CITATIONS
0

READS
396

1 author:



[Ulug'Bek Sobirov](#)

Buxoro davlat pedagogika instituti

15 PUBLICATIONS 0 CITATIONS

SEE PROFILE

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM , FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

SOBIROV ULUG‘BEK G‘OFUROVICH

YUNOGOGIKA

O‘QUV QO‘LLANMA

(I qism)

Buxoro – 2023

“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti

UO`K 37.013.42/.78(075.8)

KBK 74.6 ya73

S 70

Sobirov U.

“Yunogogika” [Matn] : o‘quv qo‘llanma / U.Sobirov .- Buxoro: “BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti, 2023.-148 b

Taqrizchilar:

*A.R.Hamroyev - Pedadodika fanlari doktori,
professor*

*G.V.Izbullayeva - Pedadodika fanlari doktori,
professor*

«Yunogogika» o‘quv qo‘llanmasida Yunogogika fanining mazmun-mohiyati, tadqiqot obyekti, manbalari, maqsadi va vazifalari, jamiyatimiz hayotida ushbu fanning tutgan o‘rni hamda amaliy ahamiyati keng qamrovli yoritilgan. Qo‘llanmada “Yunogogika” faniga mansub bo‘lgan hozirgi sharoitda yoshlar hamda yosh o‘qituvchilarni jamiyatdagi turli ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan holatlar va jarayonlarni o‘rganish, ajdodlarimiz tajribalariga tayangan holda tarbiyaviy ongini o‘stirish, umuminsoniy g‘oyalarni milliy qadriyatlarga tayangan holda egallash, ularda ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda pedagogik jarayonni samarali tashkil eta olish malakalarini shakllantirishga qaratilgan hamda yoshlarni tarbiyalash metod, usul va vositalari, yoshlarda ma‘naviy begonalashuvni oldini olishda milliy qadriyatlarining o‘rni kabi masalalar alohida boblarda o‘z aksini topgan.

«Yunogogika» o‘quv qo‘llanmasida boblar yuzasidan to‘laligicha ma‘lumotlar misollar orqali yoritilgan. Yoshlarga oid davlat siyosati, zamonaviy yoshlarning ta‘lim-tarbiyasiga oid amalga oshirilayotgan dolzarb ishlar, qabul qilingan qarorlarning amaliy ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Qo‘llanma yoshlarni jamiyatda ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan hodisa va jarayonlarga mukammal ko‘nika olish hamda ularga duch kelganda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik xususiyatlari orqali tarbiyalash muammolariga bag‘ishlangan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma 60110100-“Pedagogika. Tarbiya fani o‘qituvchisi” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari bakalavriat talabalari uchun nafaqat kunduzgi, balki sirtqi bo‘limlar uchun, shuningdek o‘z malakalarini oshiradigan o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanma fanning o‘quv ma‘lumotlari manbai va darslikni to‘ldiruvchi hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va yaxshiroq o‘zlashtirishga hissa qo‘shadigan o‘quv vositasi sifatida qaralishi kerak.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 sentabrdagi 438 – sonli buyrig‘iga asosan nashr qilindi.

Ro‘yxatha olish raqami № 438486.

8420



ISBN 978-9910-797-15-6

В учебном пособии «Юногика» всесторонне освещены сущность, объект исследования, источники, цели и задачи юногической науки, роль и практическое значение этой науки в жизни нашего общества. Это пособие для молодых людей и преподавателей, принадлежащим к науке «Юногика», предлагается изучить ситуации и процессы, которые могут повлиять на общество, развивать образовательное сознание на основе опыта наших предков, развивать универсальные идеи, основанные на национальных принципах. ценностей, она направлена на формирование навыков развития творческого мышления и эффективной организации педагогического процесса, а также отражены такие вопросы, как методы, способы и средства воспитания молодежи, роль национальных ценностей в предотвращении духовного отчуждения среди молодежи. в отдельных главах.

В учебном пособии «Юногика» информация по главам поясняется на примерах. Показана государственная политика в сфере молодежи, текущая работа по воспитанию современной молодежи, практическая значимость принятых решений. Пособие посвящено проблемам воспитания молодежи через особенности полного знакомства с событиями и процессами, способными повлиять на общество, и не потерять себя при столкновении с ними.

Данное учебное пособие 60110100-"Педагогика. Учителучитель по предмету воспитания" предназначен для студентов бакалавриата высших учебных заведений не только дневного, но и заочного отделения, а также преподавателей, повышающих свою квалификацию.

Учебник следует рассматривать как источник учебной информации по предмету и как учебное средство, дополняющее учебник и способствующее расширению, углублению и лучшему усвоению знаний.

The textbook "Yunogogy" comprehensively covers the essence, object of research, sources, goals, and objectives of the science of youth, and the role and practical significance of this science in the life of our society. The manual for young people and young teachers belonging to the science of "Yunogogy" is proposed to study situations and processes that can affect society, develop educational consciousness based on the experience of our ancestors, and develop universal ideas based on national principles. values, it is aimed at developing skills for the development of creative thinking and effective organization of the pedagogical process and also reflects such issues as methods, methods, and means of educating young people, and the role of national values in preventing spiritual alienation among young people. in separate chapters.

In the textbook "Yunogogy", information on the chapters is explained with examples. The state policy in the field of youth, current work on the education of modern youth, and the practical significance of the decisions taken are shown. The manual is devoted to the problems of educating young people through the features of full familiarity with events and processes that can affect society, and not to lose oneself when confronted with them.

This textbook 60110100-"Pedagogy. "Teacher in the subject of education" is intended for undergraduate students of higher educational institutions, not only full-time but also part-time, as well as teachers improving their qualifications.

The textbook should be considered as a source of educational information on the subject and as a teaching tool that complements the textbook and contributes to the expansion, deepening, and better assimilation of knowledge.

KIRISH

Hozirda, Respublikamizning barcha sohalarida bo‘lgani kabi, ta’lim borasida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy tuzilmalarni insonparvarlashtirishning yangi tamoyillari, bozor iqtisodiyoti munosabati qonunlari, mafkuraviy va axloqiy tamoyillar o‘zgarib borayotgan bir paytda ishsizlik, moddiy yetishmovchilik, bolalarning nazoratsizligi, oilalarning ajralib ketishi, g‘ayri ijtimoiy hodisalar — alkogolizm, narkomaniya, jinoyatchilik, fohishabozlik kabi ijtimoiy muammolarni yechish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday holatda ijtimoiy yordam va muhofazaga birinchi navbatda bolalar, lekin shu bilan birga kattalar ham muhtojdirlar. Bunday sharoitda jamiyatning ijtimoiylashuvi jarayonida yoshlarning ijtimoiy muammolari bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogik masalalarni hal qilishga yordam beruvchi mutaxassisga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Yunogogika fani garchi yangi fan bo‘lsa ham u avvaldan yurtimizda “ijtimoiy tarbiya”, “ijtimoiy muhofaza”, “ijtimoiy yordam” ko‘rinishida mavjud bo‘lgan. Uning Respublikamiz mustaqillikka erishguniga qadar alohida mustaqil fanga aylanmaganligini O‘zbekistonning tarixiy taraqqiyotida ro‘y bergan murakkabliklar va ba’zi qarama-qarshiliklar bilan izohlash mumkin. Yunogogikaning rivojlanishiga ijtimoiy tarbiyaning diskreditatsiyalashuvi, mahalliy olimlar va pedagoglarning xorijlik hamkasblaridan ajratgan “temir parda”, umuminsoniy qadriyatlarni sinfiy qadriyatlarga almashtirilishi, ijtimoiy muammolar haqida “jim turish” siyosati, rahmdillik, mehr-muruvvat an‘analarining e’tibordan chetda qolishi kabilar misol bo‘la oladi. Bugungi kunda Yunogogikaga qiziqish jamiyat taraqqiyotining ehiyojlari va davlatning ijtimoiy buyurtmasi asosida yuzaga keldi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish jamiyatda insoniylik, fuqarolarning haq-huquqlarini muhofaza qilishni ta’minlashga asoslangan yangi demokratik qadriyatlar paydo bo‘lgani bilan ham izohlanadi. Bu masalaning ahamiyati davlatimizning boshqaruv tizimlari tomonidan mustaqillikning ilk kunlaridanoq anglangan bo‘lib, buni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

1. Kuchli ijtimoiy siyosatni respublika taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishi sifatida eʼlon qilinishi.

2. Aholining yoshlar qatlamlarini himoya qilish yuzasidan bir qator qonun va farmonlarning qabul qilinishi.

3. Sobiq ijtimoiy himoya muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilanishi va yangilarining taʼsis etilishi.

Oʻzbekiston fuqarolari hayotida ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash masalasi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev asarlari va nutqlarida ham muhim oʻrin tutmoqda. Ularda yoshlar tarbiyasida insoniylik va mehribonlik oʻzbek xalqining ajralmas xususiyati ekanligi taʼkidlanadi. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda taʼlim mazmuniga yoshlarning ijtimoiylashuvi masalasi asosiy gʻoya sifatida kiritilayotgani Yunogogikani fan sifatida oʻqitishni taqozo etmoqda. Buning uchun esa alohida mazkur fanning mazmun - mohiyatini aks ettiruvchi darslik hamda oʻquv qoʻllanmalar nihoyatda zarur.

Jamiyatimizda roʻy berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy-maʼrifiy oʻzgarishlar oʻqituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi va yoshlarning ijtimoiy onglilik darajasini oshirishni taqozo etayotgan bir paytda, taʼlim-tarbiya borasida yoshlar taʼlim-tarbiyasiga oid pedagogik qarashlar va gʻoyalarni ilmiy oʻrganish, puxta tahlil qilish va hayotga tadbiq etish hamda kelgusi avlodga yetkazish bugungi kunning muhim hamda dolzarb muammosidir.

Yuqoridagi bir qator omillar respublikamizda birinchi boʻlib davlat tilida ushbu oʻquv qoʻllanmaning yaratilishiga sabab boʻldi.

1-MAVZU. Yunogogika – pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida.

Tayanch tushunchalar: yunogogika, predmeti, maqsadi, vazifalari, kategoriyalar, ijtimoiy jamiyat, ijtimoiylashuv.

Yunogogika fanining ob'ekti va predmeti.

Yunogogika- sotsiologiya va pedagogikaning integratsiyalashuvi natijasida vujudga keldi. Sotsiologiyaning o'rganish ob'yekti ijtimoiy tashkilotning turli shakllarini – guruhlar, ijtimoiy institutlar, kishilar birlashmalarini tashkil etuvchi odamlarning ijtimoiy munosabatlari va harakatlari olami hisoblanadi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib inson rivojlanishining barcha bosqichlarida (shu jumladan bolalik, yoshlik, etuklik, qarilik) unga pedagogik ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini o'rganish uchun ijtimoiy tartib shakllandi. XX asrning ikkinchi yarmida ta'limni barcha yoshdagi (ya'ni bolalik, yoshlik, etuklik, qarilik) insonni uzluksiz tarbiyalashga yo'naltirish paydo bo'lishi munosabati bilan, bir qator nashrlarda yoshlar fanini yaratish g'oyasi o'z ifodasini topgan.

Yunogogika pedagogikaning o'smirlik – yetuklik davridagi shaxsga shaxsiy o'zini o'zi belgilash va uning ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurini shakllantirish jarayonida pedagogik ta'sirni o'rganadigan, shuningdek, o'g'il va qizlarning ijtimoiylashuvi va tarbiyasi jarayonlariga xizmat qiladigan pedagogika sohasi sifatida belgilanadi.

Yoshlarni ijtimoiy voqelikga moslashishda yordam berish uchun paydo bo'lgan ehtiyoj maxsus tadqiqotlarni talab qildi. Natijada yoshlar sotsiologiyasi va ijtimoiy pedagogikaning integratsiyalashuvi yuz berdi. XX asrning ikkinchi yarmidan barcha bosqichlarda pedagogik rivojlanish imkoniyatlarini o'rganish uchun ijtimoiy tartib shakllandi.

Pedagogikaning bu sohasi 1950-yillarning oxiri 1960-yillarning boshlarida vujudga kelgan. Yoshlar pedagogikasining murakkab muammolarini ishlab chiqishni zimmasiga olgan olimlar orasida I.P.Ivanov, L.I.Umanskiy, A.N.Lutoshkin, M.M.Yashchenko, A.V.Mudrik, S.E.Xose, B.Z.Vulfov va boshqalar bor.

Yunogogika ushbu olimlar tomonidan jamiyatda uyushgan va uyushmagan yoshlar ishining pedagogikasi va psixologiyasi muammolarini ishlab chiqishdan boshlandi. Keyinchalik kasb-hunar maktabi, texnikum, universitetda uyushgan va uyushmagan yoshlar ishini tashkil etishning pedagogik asoslari, ishlab chiqarishda yoshlarni tarbiyalashni tashkil etish olimlar va ularning izdoshlarining diqqat-e'tiboriga aylandi.

Yunogogika fanining fan sifatidagi ob'ekti yoshlarga yo'naltirilgan ta'sir qilish jarayonini o'rganish bo'lib, uning maqsadi ularning yetarli ijtimoiy, aqliy va jismoniy rivojlanishidir.

Yunogogika yoshlar bilan maxsus tashkil etilgan ish jarayonida yoshlarning ijtimoiy yetukligi davrida ularga pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalarini qidiradi. Ushbu faoliyat sub'ektlari - professional yoshlardir.

Yunogogikaning predmetini belgilab, uning individualligini rivojlantirish va shaxsni shakllantirish uchun sharoit yaratish uchun shaxsga va uni o'rab turgan ijtimoiy muhitga maqsadli ta'sir qilish haqida gapirish kerak.

Yunogogika fanining predmeti 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni munosib rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyatdir.

Yunogogika - pedagogikaning yosh shaxsning ijtimoiy rivojlanishini pedagogik qo'llab-quvvatlashni o'rganadigan, yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning pedagogik texnologiyalari va usullarini ishlab chiqadigan bo'limi.

Mazkur fanning asosi - bu shaxs va atrof-muhitga uning individualligi va shaxsini shakllantirish uchun sharoit yaratish uchun maqsadli ta'sir qilish.

Fanning funksiyalari.

Yunogogika funksiyalari

1. Nazariy (3 bosqichli):

- Yoshlar ishini tashkil etish tajribasini o'rganish. Yoshlar muhitida pedagogik jarayonlar natijalarining holatini diagnostikasi;
- yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatish jarayonida barqaror aloqalar va qonuniyatlarni aniqlash;
- Bashoratli tadqiqotlar.

2. Texnologik (3 bosqichli):

- Yoshlar ishini tashkil etish boyicha uslubiy materiallar ishlab chiqish;
- pedagogika fanining yutuqlarini yoshlar bilan ishlash amaliyotiga joriy etish;
- ilmiy tadqiqot natijalarining yoshlar bilan ishlashni tashkil etishga ta'sirini baholash va nazariya va amaliyot o'rtasidagi o'zaro aloqani mos ravishda tuzatish.

Fan obyekti - yoshlarga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan jarayonlarni o'rganish. Ta'sirning maqsadi - adekvat ijtimoiy-psixologik va haqiqiy rivojlanish (taxminan 16 - 29-30). 15-17 yosh - erta yosh; 18-23 - yoshlar; 24-30 - yoshlar.

Yoshlar bilan ishlash boyicha mutaxassisning kasbiy va pedagogik faoliyati XX asrning 70-yillari o'rtalariga kelib Sovet Ittifoqida 1992 yilda komsomolning yo'q bo'lib ketishi bilan yo'q qilingan yoshlar bilan ishlash tashkilotchilarini kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlashning yetarlicha izchil tizimi ishlab chiqilgan, va faqat yangi asrning boshida, tajriba tariqasida mamlakatning bir qator oliy o'quv yurtlarida yangi "Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisi" mutaxassisligini ochishga qaror qilindi.

Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining kasbiy faoliyat sohasini quyidagilar belgilaydi:

- yoshlarning yashash, o'qish, ishlash, dam olish, vaqtincha bo'lish joyi boyicha yoshlar jamiyatlarida yoshlar bilan ishlashni tashkil etish;
- yoshlar manfaatlarini ifodalovchi birlashma va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshirish;
- jamiyatga moslashuv jarayonida qiyinchiliklarga duch kelayotgan yoshlarga yordam ko'rsatishni tashkil etish;
- yoshlarni axborot bilan ta'minlash va yoshlar muammolari va yoshlar siyosati boyicha ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, yoshlar ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etish;
- yoshlarni ish bilan ta'minlash, bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka ko'maklashish;
- yoshlarning xalqaro hamkorligini rivojlantirishga ko'maklashish;

- yoshlarni fuqarolik-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ishtirok etish;
- yoshlarning sport-sogʻlomlashtirish tashkilotlari faoliyatiga koʻmaklashish;
- yoshlarning loyiha va dasturlarini boshqarish va qoʻllab-quvvatlashni

tashkil etish;

- yoshlar oʻrtasida dolzarb va ommabop tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash.

Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining tipik pedagogik vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tarbiya;
- ijtimoiy taʼlim;
- kasbga yoʻnaltirish;
- deviant xulq-atvorning oldini olish;
- yoshlar hayotidagi voqealarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan qoʻllab-

quvvatlash

Taʼlim maqsadlari - bu taʼlim subʼektlarining maqsadli taʼsiri ostida sodir boʻladigan shaxsda kutilayotgan oʻzgarishlar.

Taʼlim maqsadlarini belgilashda ikkita asosiy yondashuv mavjud.

- Maqsadlarni ishlab chiqishda birinchi yondashuv, eng avvalo, jamiyat ehtiyojlarini hisobga oladi, shuning uchun bola tarbiyasiga qoʻyiladigan talablar davlat, jamiyat, sinfning vazifalaridan kelib chiqadi.

- Maqsadlarni belgilashda ikkinchi yondashuv, birinchi navbatda, inson ehtiyojlarini hisobga olishni oʻz ichiga oladi. Shu bilan birga, maqsad uning ijtimoiy rivojlanishida yordam berish, uning mavjud ijtimoiy sharoitlarga moslashishini taʼminlash va shu bilan birga uning "men" ni, individuallikni rivojlantirishni saqlab qolishdir.

Yunogikaning asosiy kategoriyalari

Har qanday nazariy qurilish oddiy gʻoyalar va ilmiy bilimlar oʻrtasidagi aniq farqni talab qiladi. Taʼlim va tarbiyaning kundalik amaliyoti kundalik nutqda oʻz ifodasini topgan. Ilmiy tushunchalar pedagogik tajriba va bilimlarni umumlashgan shaklda yetkazadi. Ikkinchisiga quyidagilar kiradi: pedagogik kategoriyalar va

tushunchalar, ta'lim va tarbiyani tashkil etishning qonuniyatlari, usullari va tamoyillari.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi davrida uchta fundamental kategoriya (pedagogikaning asosiy tushunchalari) aniqlandi - "ta'lim", "o'qitish", "ta'lim".

“Tarbiya” umumiy kategoriya sifatida tarixan “o'qitish” va “ta'lim”ni o'z ichiga oladi. Hozirgi zamon fanida “tarbiya” ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-madaniy tajribani avloddan-avlodga o'tkazish, deb tushuniladi. Bunda tarbiyachi:

- insoniyat tomonidan to'plangan tajribani uzatadi;
- madaniyat olamiga kiritadi;
- o'z-o'zini tarbiyalashni rag'batlantiradi;
- qiyin hayotiy vaziyatlarni tushunishga va mavjud vaziyatdan chiqish yo'lini topishga yordam beradi.

Boshqa tomondan, talaba:

- insoniy munosabatlar tajribasi va madaniyat asoslarini egallaydi;
- o'z ustida ishlaydi;
- muloqot qilish usullari va xulq-atvorni o'rganadi.

Natijada, o'quvchining dunyo haqidagi tushunchasi, odamlarga va o'ziga bo'lgan munosabati o'zgaradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ta'lim o'qitish bilan dialektik bog'liqdir. Bu shaxsning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan asosiy fazilatlarini rivojlantirish va tasdiqlashga yordam beradi. Bu sifatlar nafaqat insonning dunyoqarashini, balki ijtimoiy, ahloqiy pozitsiyalarini ham tavsiflaydi;

Madaniyat va sivilizatsiya tajribasini to'plash va uzatish ilmiy bilimlarning o'sishi bilan birgalikda jamiyatning nafaqat ajralmas funksiyasi, balki uning rivojlanishining shartiga ham aylandi. Hozirgi vaqtda ta'lim va tarbiyaga jamiyat va davlat, fan va madaniyat shakllanishining asosiy omillari sifatida qaralmoqda.

Ta'lim vazifasi har doim jamiyatning muayyan ijtimoiy funksiyalar va ijtimoiy rollarni amalga oshirishga qodir avlodni tayyorlashga tarixiy ehtiyojini ifodalaydi. Ya'ni, ta'limning mohiyati va vazifalarini belgilovchi tizimlar

oʻrnatilgan etnomilliy anʼanalarga, ijtimoiy-tarixiy shakllanish xususiyatlariga, maʼlum bir qadriyat ierarxiyasiga, shuningdek, davlatning siyosiy va mafkuraviy taʼlimotiga mos keladi.

Jahon amaliyotida "Spartalik", "ritsarlik taʼlimi tizimi", "domostroy", "janoblar tarbiyasi", "kollektiv ijodiy ishlar tizimi" kabi taʼlim tizimlari maʼlum.

Ikkinchi toifa - "oʻrganish" - oʻqituvchi va talabalar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar jarayoni tushuniladi, buning natijasida oʻquvchining rivojlanishi taʼminlanadi.

Bunda oʻqituvchi:

- oʻrgatadi - bilimlarni, hayotiy tajribani, faoliyat usullarini, madaniyat va ilmiy bilim asoslarini maqsadli ravishda uzatadi;
- bilim, koʻnikma va malakalarni oʻzlashtirish jarayoniga rahbarlik qiladi;
- oʻquvchilarning shaxsiyatini (xotira, diqqat, fikrlash) rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Boshqa tomondan, talaba:

- oʻrganadi - uzatilgan maʼlumotlarni oʻzlashtiradi va oʻqituvchining yordami bilan sinfdoshlari bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda oʻquv vazifalarini bajaradi;
- mustaqil ravishda kuzatish, solishtirish, fikr yuritishga harakat qiladi;
- yangi bilimlarni, qoʻshimcha maʼlumot manbalarini (qoʻllanma, darslik, internet) izlashda tashabbus koʻrsatadi, oʻz-oʻzini tarbiyalash bilan shugʻullanadi.

Demak, "taʼlim-tarbiya" dialektik munosabati, birinchi navbatda, shaxsning qiziqishlari, egallagan bilim, koʻnikma va malakalari asosida uning faoliyati va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Fan va amaliyotda taʼlim va tarbiya oʻzaro taʼsiri jarayonini amalga oshirish xususiyatlariga koʻra turli didaktik tizimlar farqlanadi: rivojlantiruvchi, muammoli, modulli, dasturlashtirilgan.

Pedagogikaning uchinchi toifasi – “ta’lim” deganda quyidagilar tushuniladi:

- 1) rivojlanayotgan shaxs va jamiyatning qadr-qimmati;
- 2) shaxsni o‘qitish va tarbiyalash jarayoni;
- 3) ikkinchisi natijasida;
- 4) tizim sifatida.

Ta’lim (yoki ta’lim va tarbiya) muassasalarining butun majmuasi ma’lum bir shahar, mintaqa, mamlakat doirasida tizimga qurilgan.

Asrlar davomida turli ta’lim va muassasalari shakllandi. Bularga: bolalar bog‘chalari, gimnaziyalar, maktab-internatlar, litseylar, kollejlari, institutlar, universitetlar, akademiyalar, yoshlar uylari, ijod saroylari, taraqqiyot markazlari, o‘quvchilar xonalari kiradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Yunogogika predmetiga ta’rif bering?
2. Yunogogika fanining fanlar tizimida tutgan o‘rnini aniqlang va tushuntiring?
3. Yunogogika nimani o‘rganadi? Ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy-psixik holatlar, xususiyatlarga tushunchalar bering?
4. Yunogogikaning fan sifatida rivojlanish bosqichlarini ayting.

ASSESSMENT METODI

«ASSESSMENT» metodning maqsadi tinglovchilarning bilim darajasi va amaliy ko‘nikmalarini baholash orqali mavzuni o‘zlash-tirish ko‘rsatkichlarini aniqlashdir. Ushbu metoddan turli mashg‘ulotlar (ma’ruza, munozara, amaliy)ning barcha bosqichlarida (kirish, asosiy qism va yakuniy qismlarida) foydalanish mumkin.

Shuningdek, o‘zlashtirilgan o‘quv materialini mustahkamlash yoki yangi mavzuni boshlashdan oldin ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarning bilimlarini tekshirib ko‘rish uchun foydalanish mumkin.

Assesment baholash jadvalining taxminiy nusxasi:

Test:	Muammoli vaziyat:
Simptom:	Amaliy ko'nikma:

«ASSESSMENT» metodini qo'llash qoidalari:

– o'qituvchi tomonidan plakatga chizilgan jadval doskaga osib qo'yiladi (jadval doskaga chizilishi, slayd orqali namoyish etilishi yoki tarqatma material sifatida har bir tinglovchiga tarqatili-shi ham mumkin);

– o'qituvchi jadvalning har bir bo'limidagi topshiriqlarni echish uchun bo'limning mazmunidan kelib chiqqan holda vaqt taqsimotini belgilab beradi;

– belgilangan vaqt tugaganidan so'ng o'qituvchi plakatga chizilgan jadvalga har bir bo'lim bo'yicha to'g'ri javoblarni yozadi (javoblar slayd orqali namoyish etilishi yoki og'zaki o'qib eshittirilishi ham mumkin);

– har bir tinglovchi o'zining javob varianti bilan o'qituvchi tomonidan berilgan (namoyish qilingan) to'g'ri javoblar bilan solishtirib, har bir bo'lim bo'yicha o'zlarining javob variantlarini baholaydilar (o'qituvchi tinglovchilarning javob variantlarini yig'ib olib o'zi baholashi ham mumkin).



O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Рожков М.И. Педагогическое обеспечение работы с молодёжью. Юногика. –М.:Гуманитар. Изд.центр ВЛАДОС, Учебное пособие для студентов вузов, 2008.-246с.

2. Подласый И.П. Педагогика: в 3-х кн. –Москва: ВЛАДОС, 2013

3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.

4. Ишмухаммедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар ўқув қўлл. – Т.:Фан ва технология, 2010

5. <https://studfile.net/preview/3658738/>

2-MAVZU. Yoshlar bilan ishlash boyicha kasbiy-pedagogik faoliyat va uning o'ziga xosliklari.

Tayanch tushunchalar: Avesto, yozma manba'lar, yodgorliklar, renessans, g'arb uyg'onish davri, Zardushtiylik, Axura Mazda, gumanizm, quvonch uyi, mehribonlik uyi, maktab-internat.

Tarixiy manbaalarda yoshlar masalalarining yoritilishi.

«Avesto» - zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, dastlabki Sharq falsafiy qarashlarmi o'zida aks ettiruvchi manbadir. Unda insormi kamolotga erishuvda mehnat, ezgulik, insoniylik, soflik, bag'rikenglik kabi sifatlarning ahamiyati chuqur ifodalangan. Zardushtiylik dinining nomi ushbu din asoschisi Zardusht (turli tillarda Zaratushra, Zoroastr) ismidan olingan. Uning tug'ilgan joyi noma'lum. Zardusht miloddan avvalgi 1-ming yillikning birinchi choragida yashagan. Zero, zardushtiylikda axloqiylikning asosi, sahovatlilik belgisi – mehnat deb ko'rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg'u beriladi. Zardushtiylik yoyilayotgan davrda ibodatxona ham, maxsus ilohiy kitoblar ham bo'lmagan. Diniy marosimlar ochiq havoda, gulxan yonida ado etilgan. Keyinchalik koinlar Zardusht va'zlarini yozib borganlar. Zardusht dini koinlari bunday diniy matalarni yod bilganlar va ibodat paytida o'qiganlar, Zardusht vafotidan bir necha asr o'tgach barcha diniy marosimlar, madhiya va duolar kitob holiga keltirildi. Bu zardushtiylik muqaddas kitobi «Avesto» edi. «Avesto» so'zi «qat'iy qonunlar» ma'nosini bildiradi. Zardusht diniga ko'ra, atrofdagi dunyo ikki qismdan tashkil topgan: yaxshilik va yomonlik. Bular o'rtasida azaldan kurash ketadi. Masalan, nur bilan qorong'ulik, hayot bilan o'lim, ezgulik bilan yomonlik, qonun bilan qonunsizlik o'rtasida. Zardushtiylik hayotining asosiy mazmuni xayrli ish, shirin so'z, olijanob o'y-fikrdan xborat bo'lgan. Insonning asosiy burchi adolatli turmush tarzi bo'lmog'i kerak. Yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilishini ko'zlab yashash kerak: yolg'on gapirmaslik, so'zning ustidan chiqmoq, faqat yaxshilik qilmoq. Zardusht dini boyicha har bir inson hayot yo'lini o'zi belgilaydi; kimga yon bosmoqlik,

kimni himoya qilishni o'zi hal qiladi. Zardushtiylikda olov, yer, suv va havo muqaddas sanaladi. Ularni yomon, yovuz narsalar bilan aralashtirmaslik lozim.

“Avesto” asarida inson shaxsining kamolotga erishishiga oid fikrlar ifoda etilgandir. Mazkur asar g'oyalari orqali qadimgi davrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy hamda ijtimoiy qarashlari borasida muhim ma'lumotlarga ega bo'lamiz. “Avesto” diniy xarakterga ega bo'lish bilan birga, o'zida falsafiy, siyosiy, filologik, va tarbiyaviy masalalarni ham qamrab olgan. Zardushtiylik dinining g'oyalari xususida so'z borganda, ularning to'g'rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ushbu afsonada gunoh va uning jazosi, poklikning mohiyati ta'riflanib olov, suv, yer, chorva, daraxt hamda o'simliklar ulug'lanadi, kohin, harbiy, dehqon va chorvadorlar sharaflanadi. Hayvonlarga zulm o'tkazish eng katta gunoh sifatida qoralanadi. Mazkur bo'limda shaxsiy gigiyenaga amal qilishga oid qoidalar–tirnoq va sochni parvarishlash masalalari yuzasidan fikr bildiriladi. Bildirilayotgan fikrlardan anglashiladiki, zardushtiylik dinining g'oyalariga ko'ra, shaxsning axloqiy xislatlarga ega bo'lishi adolat o'lkasini qaror toptirishda tayanch omil bo'lib xizmat qiladi. Zardushtning asosiy yo'riqlaridan biri ham Axuramazdaning ko'makchisi sanalgan inson saxovatli bo'lishi kerak, degan aqidadir. Garchi, zardushtiylikda diniy rasm-rusumlarga rioya etish, Zardusht tomonidan ilgari surilgan barcha axloqiy yo'l-yo'riqlarni bajarish har bir kishining muqaddas burchi ekanligi e'tirof etilishi bilan birga, dunyoviy ishlar va ularning mohiyati ham ochib beriladi.

Yunogogika mustaqil fan sifatida oxirgi yillarda o'qitila boshlangan bo'lsa-da, u ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy himoya ko'rinishida qadimiy ildizlarga ega. Ilk diniy-falsafiy (Avesto) va adabiy (Alpomish, Go'ro'g'li) kutubxonasi manbalarda biz insonning ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan pedagogik qarashlarning aks etganini ko'ramiz.

Keyinchalik VI — VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida islom dinining tarqalishi yangi ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni yuzaga keltirdi. Ular mintaqadagi oila va jamiyat tarbiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Markaziy Osiyoning arab ligi tarkibiga

kirishi madaniy almashinuv, fikr va qarashlarning erkin kurashi, o‘zaro munosabatlarning shakllanishini yuzaga keltirdi. Moddiy barqarorlik, ishlab chiqarish hamda savdo rivoji ehtiyojlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy holat ma’naviy va madaniy hayotning yuksalishiga, dunyoviy ilm va fanlarning gullab-yashnashiga, fors, arab, qadimgi yunon madaniyati yutuqlarini o‘zlashtirishga yordam berdi.

G‘arb uyg‘onish davrida yoshlar muammolarining o‘rganilishi.

XV — XVI asrda avval Italiyada, so‘ngra Yevropaning boshqa davlatlarida kapitalistik munosabatlar rivojlana boshladi. Paydo bo‘layotgan yangi toifa vakillariga, xususan, ziyolilarga asketizmning tamoyillari begona edi. Yangi burjua madaniyati shakllana boshlagan bir paytda uni tavsiflash uchun insoniylashtirish va qayta tiklash tushunchalari qo‘llanilgan. Gumanizm (insoniylik) tushunchasi yangi madaniyat markazida ilohiylik emas, inson shaxsi turishidan guvohlik berardi. Insonning o‘zi ham qalban va jismonan go‘zal bo‘lishi lozim. U faqatgina uz ongi, kuchi, muvaffaqiyatiga ishonchi, faolligi, irodasi tufayli barcha qadriyatlar va uz baxtining yaratuvchisiga aylana oladi. Shu bilan birga, gumanistlar cherkovga ochiqdan-ochiq qarshi chiqmaganlar. Ular xudoga buyuk yaratuvchi sifatida qarashgan.

XIV — XVI asrlar gumanistlarining aksariyati o‘zlari pedagog bo‘lishgan yoki pedagogik nazariyaga murojaat etishgan. Gumanizm g‘oyasi pedagogikada xuddi ana shu davrlardan boshlab kuzatila boshlangan. Asl tarbiya o‘z mohiyatiga ko‘ra doim go‘zallik haqida, uning kelajagi haqidagi g‘amxo‘rlikni bildirgan. Uyg‘onish davrida ijtimoiy gumanizm g‘oyalarining amalga oshirila boshlanishi mashhur italiyalik pedagog-gumanist Vitgorino de Genotre (1378 — 1446) tomonidan ilk marta “Quvonch uyi” nomli internat maktabining yaratilishi bilan bog‘liq. Shuni ta’kidlash joizki, ta’riflanayotgan davrda din, pedagogika va ijgimoiypedagogika bir-biri bilan uzviy bog‘liqholda rivojlangan. Diniy qarashlarda asosiy e’tibor umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltirilgan. Diniy rivoyatlarda, muqaddas kitoblarda, oyatlarda axloqiy o‘g‘itlar, insonlararo munosabatlar, qavm-qarindoshlarga, bolalarga g‘amxo‘rlik haqida ko‘p gapirilgan.

Bu asosda ko'pgina avlodlar tarbiya topishgan va bu borada Yevropada cherkov uzoq vaqt mobaynida "nogiron bolalar rahnamosi" bo'lgan. Unga nafaqat ruxrty yordam so'rab, balki tibbiy, moddiy yordam so'rab, adolatsizlikdan himoya so'rab murojaat qilishgan. Bu borada butun dunyoda diniy tashkilotlarning boy an'fnalari mavjud. Masalan, Yevropada antik davrlardan buyon ota-onasiz qolgan bolalarni ibodatxonalar eshigi oldiga qo'yib ketishgan.

Manbalarga ko'ra, ota-onasiz qolgan bolalar uchun ilk tarbiya uylari IV asrda Kesariya shahrida yepiskop Vasiliy Kesariyning tashabbusi bilan paydo bo'lgan. 787 yilda bunday muassasa Milandagi soborda ham paydo bo'lgan. Uzoq vaqg u Yevropada yagona tashkilot bo'lib qolavergan va faqat XIV asrga kelib tarbiya uylari soni o'ttiztagacha ko'paygan. Qizig'i shundaki, bu uylarda faqatgina bolalarga g'amxo'rlik qilmasdan, profilaktika ishlari ham olib borilgan: onalarga yordam berilgan, bolalarni boshqa oilalar tarbiyasiga berishgan, ularningtarbiyasini nazorat qilishgan. Keyinchalik ham bolalar uylari ruhoniylar tomonidan boshqarilgan. Parijda 1640-yil ruhoniy Vinsento Depolen tomonidan asos solingan tarbiya uyi juda mashhur bo'lgan. U tarbiya uyini qirol Lyudovik XIV tomonidan moliyalashtirishga erishgan. Mehribonlik bilan shug'ullanuvchi ordenlar— xayriya yo'lida qilgan ishlari orqali keyinchalik mashxur bo'lib ketgan yirik cherkov tashkilotlari tuzila boshlagan.

XVII — XIX asrlar — ijtimoiy-pedagogika eng ilg'or g'oyalar va ilmiy konsepsiyalar bilan boyitilgan davr bo'ldi desak, xato bo'lmaydi. XVIII — XIX asrlar (burjua-demokratik inqiloblar davri) olimlarining (pedagog, faylasuf, sotsiolog, psixologlar) davlat va jamoat instituglari bilan hamkorlikda ijtimoiypedagogik muammolarni hal qilish g'oyalarining paydo bo'lishi davridir. Tarbiya masalalari jamiyat islohotlari, inson huquqlari tengligi bilan bog'lana boshlangan. Aynan shu davrda ijtimoiy pedagogikadagi asosiy yo'nalishlarning aniq faoliyatda amalga oshishi sodir buladi. Ijtimoiy pedagogik g'oyalarning rivojlanishiga fransuz faylasufi, yozuvchi, ma'rifatparvar J.J. Russo (1712-1778) ulkan hissa qo'shgan. U huquqiy, diniy va tabiiy rivojlanish asosiga qurilgan tabiatan shakllangan tarbiya g'oyalarini ilgari suradi. Rus qomusiy olimi va

pedagogi M.V.Lomonosov (1711-1765) “Reglamentlar”ida tarbiyaning xalqparvar g‘oyalarini, insonga faol shaxs sifatida yondashuvni hamda bolada axloqiy sifatlarini shakllantirishning o‘ta muhimligini bayon etgan. Yangi ijtimoiy pedagogik g‘oyalar fransuz faylasufi va ma’rifatparvari Klod Adriana Gelvesiy (1715-1771) ishlarida ham tilga olingan bo‘lib, ular tarbiya omillari hisoblanmish muhit va pedagogik ta’sir hamda shaxs va jamiyat manfaatlarining birligi masalalaridir.

Shvesariyalik buyuk pedagog Iogann Genrix Pestalossi (1746-1827 y) o‘z faoliyatida ijtimoiy pedagogik nazariya va amaliyotni birlashtirgan va o‘z mablag‘lari hisobiga Yetimlar uylarini ochgan. Ingliz faylasufi va pedagogi Robert Ouenning ijtimoiy pedagogik faoliyati bir qancha qiziqarli va sermahsul tajribalardan iborat. Nyu-Lenarkda “Inson xarakterini tuzishning yangi instituti”ni ishchilarning turmush darajasini yaxshilash uchun yaratib, u amaliyotda ishlab chiqarish ta’limini madaniyat bilan bog‘lab qo‘ydi. Jahonda ilk marta didaktik o‘yinlar o‘tkaziladigan, bolalarning jismoniy holati haqida g‘amxo‘rlik qiladigan muassasalar u tomonidan tuzilgan.

Ingliz faylasufi Gerbert Spenser (1820-1903) oilaning shaxs shakllanishidagi o‘rni haqidagi ijtimoiy-pedagogik g‘oyalar bilan singdirilgan asarlar yaratgan. Bu maqsadlarga erishishi uchun u qiziq usulni ilgari surgan, ya’ni Angliyaning davlat va siyosiy tuzilmasini oila va maktab tomonidan imitatsiyalashuvini. XIX asr shunisi bilan xarakterliki, bu davr mobaynida, bir tomondan, ijtimoiy pedagogikaning pedagogika fanidan ajralish jarayoni sodir bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot, falsafa kabi fanlar bilan yaqinlashuvi ro‘y bergan.

Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlari asarlarida yunogogika fanining rivojlanishi.

Ijtimoiy pedagogik g‘oyalar va nazariyalarning shakllanishida Sharq uyg‘onish davri olimlarining asarlari alohida o‘rin tutadi. Ular faoliyatining mohiyati o‘sha davrgacha mavjud bulgan ijtimoiylashtirish usullarini ilmiy asoslangan tizim holatiga keltirganliklaridadir. Yetuk olimlarning faoliyatidagi

uziga xoslik, ya'ni doimiy ilm bilan mashg'ul bo'lish, bilimga chanqoqlik ularning ijtimoiy pedagogik qarashlarining mazmunida uz aksini topadi. Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek kabi olimlar uz ilmiy va pedagogik faoliyatlarida rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va ta'lim beruvchi ta'sir kuchlarini o'sib kelayotgan avlodga qaratish g'oyasini ilgari surishgan va buni tadbiqu etishgan. Bu, avvalambor, ular ta'limning maqsadini xryotga tayyorlash, axloqiy me'yor va qoidalar, kasbiy malakalar va chuqur bilimlarga ega bo'lishda, deb bilganliklarida namoyon bulgan. Mashxur olim Al-Xorazmiy (783-850 y.) asarlari yorqin didaktik tavsifga egadir. U savol-javob metodi orqali bilimlar qulga kiritilishi, bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kirishishi va jamiyatning faol a'zosiga aylanishini ta'kidlagan. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1050y.) ta'lim jarayonida qullaniladigan ilmiy usullarni ishlab chiqqan. U, shuningdek, ta'lim tamoyillarini ham tasniflagan. Allomaning pedagogik qarashlarini ijtimoiy yo'naltirilishi axloqni ijtimoiy xususiyatlar va hissiyotlarning ifodasi sifatida tushunganligida o'z ifodasini topgan. Uning tarbiya, shaxsning shakllanishida va jamiyatdagi amaliy faoliyat uchun ilm va meqnatning ahamiyati haqidagi g'oyalari hozirgacha o'z ahamiyatini sakdab qolgan. Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino (980-1037y) o'z davrining barcha bilim sohalarini qamrab oluvchi katta ilmiy meros qoldirgan bo'lib, uning barcha asarlarida pedagogik qarashlar mavjud. Olimning bilim, iroda va insonning rivojlanish jarayonidagi maqsadga intiluvchanligi, atrofmuhit ta'siri, axloqiy va mehnattarbiyasi, muomala san'ati, bolalarni jamoada o'qitish haqidagi g'oyalari hozir ham nihoyatda muhim hisoblanadi. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniylar ta'lim muammolari boyicha fikrlar bildirishgan va insonning jamiyatga sermahsul xizmat qilishi uchun o'z akushy, jismoniy, axloqiy, estetik va meqnat qobiliyatlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi ta'lim vazifasini alohida ajratib ko'rsatganlar.

Ta'limning rivojlatiruvchi vazifasini amalga oshirish maqsadida ular quyidagi didaktik tamoyillardan foydalanishni maslahat berganlar:

— asta-sekin tushunchalarning murakkablashuvi;

- amaliyotni tajriba bilan bog‘lash;
- qabul qila olishlik;
- ko‘rgazmalilik.

Ibn Sinoning fikricha, ijtimoiylashtirish ko‘nikmalari jamoa bo‘lib o‘qitish shaklida yaxshi shakllanadi.

Buning uchun u quyidagilarga asoslanishi lozim:

1. Ta‘lim oluvchilar, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida tajriba, bilim, ma‘naviy va axloqiy qadriyatlar almashinuvini tashkil kdlish.
2. Musobaqalashuv elementidan foydalanish.
3. O‘quvchining ijtimoiy-axloqiy xususiyatlari— muomala. O‘zaro tushunish, o‘zaro yordam, do‘stlik hissini rivojlantirish.

Buyuk olimlarning pedagogik qarashlari va faoliyatlarining ijtimoiy-pedagogik yo‘naltirilganligi ularning, avvalambor, hayotga har tomonlama tayyorlash hisoblangan ta‘lim maqsadini sharxlashlarida o‘z ifodasini topgan. Ular shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini belgilab olishini ta‘minlab beruvchi eng muhim sifatlar — bu mehribonlik, yaqinlarga yordam, g‘urur, vijdon, yaxshi niyatlilik va sabr, deb hisoblaganlar. O‘quvchilarning har tomonlama intellektual va mehnatsevarlik hislatlari tayyorgarliklariga katta e‘tibor qaratib, Forobiy va Ibn Sino yoshlarning jamiyatga “kirish”larining eng muhim omillari sifatida faollik, mustaqil tashabbuskorlik, intiluvchanlik, qiziquvchanlik va aqliy qobiliyatlarni ko‘rsatib o‘tishgan. Forobiy ijtimoiy tarbiyada o‘qituvchiga yetakchi urin ajratib, uning faoliyatini — jamiyatning kelajagi unga bog‘liq bulgan hukmdor faoliyatiga qiyoslaydi. Forobiy ham Ibn Sino kabi, o‘qituvchilar e‘tiborini o‘quvchilarning bilimlarini hayotga tadbiiq etishlariga qaratishlari lozimligiga ishora qilgan. Qomusiy olimlar shaxsiy namunaga nihoyatda katta e‘tibor berishgan hamda o‘zlari ham intiluvchanlik, yuqori ijtimoiy mavqega erishganlik namunasi bo‘lib xizmat qilishgan. Forobiy nihoyatda mehnatsevar, irodali, kamtar, sodda bo‘lgan va doim yordamga intilgan. Forobiyning o‘quvchilarni individualpsixologik va aqliy xususiyatlariga mos keluvchi ta‘limning ustuvorligi, kasb tanlash muhimligi haqidagi fikrlari hozirgi kunda ham katta ahamiyatga ega. Tarbiyaning ijtimoiy

xarakteri haqidagi g'oyalar Alisher Navoiyning adabiy merosida niqoyatda aniq ifodasini topgan. Shoirning pedagogik qarashlari insonparvar tavsifga ega. Buyuk alloma inson egallashi lozim bo'lgan barcha bilim va kasbhunarlar u tomonidan Vatan foydasi uchun qo'llanilishi kerakligini aloqida ta'kidlab o'tgan. Alisher Navoiy, Forobiy, Ibn Sinolarning falsafiy va pedagogik konsepsiyalari keyingi davrlarning yetakchi ta'limotlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan. XI — XII asrda yashab ijod qilgan Markaziy Osiyo ma'rifatparvar olimlari turli fanlar, shu jumladan, pedagogikaning rivojiga katta hissa qo'shishdi. Yusuf Xos Hojib, Burxoniddin Zarnujiy va Ahmad Yugnakiylar bolalar jamiyatda o'z o'rnini topishida bilim, ota-ona, oilaning o'rnini alohida ajratib ko'rsatadilar. Ular tarbiyaning asosiy maqsadi deb, komil insonni tarbiyalash, unga yetishish vositasi sifatida esa qattiqqo'llik va doimiy mehnatga o'rgatishni tushunishgan. Zarnujiyning "Ta'limda o'quvchiga pandlar" kitobi, Yusuf Xos Hojibning "Kugadg'u bilig" asari Markaziy Osiyoda pedagogikaga oid bo'lgan birinchi kitoblar hisoblanadi.

Markaziy Osiyo olimlari tomonidan tarbiya va ta'limning ijtimoiy o'rnini ijtimoiylashuvning mikroomillar: muhit, oila va o'quvchilar guruhiga e'tibor karatganlarida hamda otaonalar, pedagog va o'quvchining harakatlarini mujassamlashtirish kerakligi bilan bog'liqlikda ochib berganliklarida yorqin namoyon bo'ladi. Shunday qilib, o'rta asr olimlari ijtimoiy pedagogika sohasida katta meros qoldirganlar. Ularning ilmiy pedagogik asarlari zamonaviy ijtimoiy pedagogika ilmini rivojlantirish uchun muhim manba hisoblanadi.

Yoshlar bilan ishlash boyicha kasbiy-pedagogik faoliyat va uning o'ziga xosliklari.

Yoshlarga oid siyosatni amalga oshirish boyicha ishlar ham maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan yoshlar bilan ishlashning professional tashkilotchilari, ham turli ko'ngillilar tomonidan amalga oshiriladi. Bu ish ko'plab tarkibiy qismlarga, jumladan, yoshlar bilan ishlash vazifalarini amalga oshirish uchun juda muhim bo'lgan pedagogik komponentga ega. Yoshlar bilan ishlash boyicha

mutaxassis tayyorlashning o'ziga xos murakkab tarixi bor. Mustaqillikdan oldingi davrda mehnat tashkilotchilari (o'sha paytdagi komsomol ishchilari) faqat 1969-yilda, Moskvada Oliy komsomol maktabi tashkil etilgandan so'ng, 1990-yilda Yoshlar instituti deb o'zgartirilganda, mutaxassislar sifatida professional ravishda tayyorlana boshladilar. Shu bilan birga, komsomol ishchilarini kasbiy qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmog'i yaratildi. Bu faoliyat turli darajadagi partiya maktablarida olib borildi va 70-yillarning boshlarida zonal komsomol maktablari tarmog'i yaratildi.

1960-yillarning oxirida mamlakatning bir qator pedagogika oliy o'quv yurtlarida komsomol ishlari uchun metodistlar tayyorlaydigan, bir vaqtning o'zida tarix o'qituvchilari sifatida tayyorlaydigan "istpedlar" tashkil etildi.

1992-yilda komsomolning yo'q qilinishi bilan yo'q qilingan yoshlar bilan ishlash tashkilotchilarining kasbiy tayyorgarligi va qayta tayyorlashning yetarli darajada izchil tizimi ishlab chiqilgan, va faqat yangi asrning boshida, aniqrogi 2001 yilda tajriba sifatida mamlakatimizning bir qator o'quv yurtlarida yangi "Kamolot" yoshlar harakatini ochishga qaror qilindi. Ayni vaqtda 2017-yildan boshlab ushbu ijtimoiy harakat "Yoshlar ittifoqi"ga o'zgartirildi. Shunga ko'ra, ushbu mutaxassisga qo'yiladigan kasbiy malaka talablari va uni tayyorlash standarti tasdiqlandi.

Standart mutaxassisning kasbiy faoliyat sohasini belgilaydi:

- yashash, o'qish, ishlash, dam olish joyidagi yoshlar jamoalari bilan ishlash;
- qiziqishlari asosida yoshlar birlashmalari bilan ishlash (kasbiy, ijodiy, sport birlashmalari);
- norasmiy yoshlar guruhlari bilan o'zaro munosabatlar; yoshlar va bolalar jamoat birlashmalari;
- yoshlar o'rtasida g'ayriijtimoiy hodisalarning oldini olish;
- yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, ularni uy-joy bilan ta'minlash, oila qurish, yoshlarni tarbiyalash boyicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- yoshlarni axborot bilan ta'minlash;

Pedagogik faoliyat doimo ta'sirni o'z ichiga oladi, uning maqsadi odamlar hayotidagi sifat o'zgarishlaridir. Bu ta'sirlar munosabatlar tizimini tartibga solishga qaratilgan, ya'ni o'qituvchi birinchi navbatda muayyan shaxsga nisbatan boshqaruv vazifalarini amalga oshiradi. O'qituvchi ta'sir va boshqaruv bilan bir qatorda shaxsning ta'lim va o'zini o'zi tarbiyalashi va shaxsning rivojlanishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Yoshlar muammolari va yoshlar siyosati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar:

- yoshlar ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik;
- yoshlar o'rtasida dam olish, sog'lomlashtirish va ijodkorlikni rivojlantirish;
- yoshlarni ish bilan ta'minlash, bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka ko'maklashish;
- yoshlarning xalqaro hamkorligini rivojlantirish;
- yoshlarni fuqarolik-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- yoshlarning ommaviy sportini rivojlantirish;
- talaba, ishchi, qishloq yoshlarini qo'llab-quvvatlash.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Yunogogika predmetiga ta'rif bering?
2. Yunogogika fanining fanlar tizimida tutgan o'rnini aniqlang va tushuntiring?
3. Yunogogika nimani o'rganadi? Ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy-psixik holatlar, xususiyatlarga tushunchalar bering?
4. Yunogogikaning fan sifatida rivojlanish bosqichlarini ayting.

«KONSTRUKTOR» METODI

«KONSTRUKTOR» metodi tinglovchilarning mavzuga oid egallagan bilimlarini mustahkamlash, ulardagi mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, tinglovchilardan turli xil mantiqiy amallarni (tahlil qilish va umumlashtirish, dalil va hodisalarni qiyoslash, ulardagi o'xshashlik va farqli tomonlarni aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali belgilarni ajratish va hokazo) bajarishni talab etadi. Odatda, tinglovchilar noma'lum hodisalar, yangi

materiallarga duch keladilar, yangi bilimlarni egallash va o'quv muammosini hal qilish yo'llarini izlab topishni talab etadigan muammoli vaziyat paydo bo'ladi. Ushbu metoddan mashg'ulotlarning asosiy va yakuniy qismlarida foydalanish mumkin.

«KONSTRUKTOR» metodini qo'llash qoidalari:

– o'qituvchi tinglovchilarga mavzuning qisqacha bayonini berganidan so'ng mavzuga oid uch yoki to'rt yo'nalishdagi ayrim tushunchalarni ajratib doskaga yozib qo'yadi (slayd orqali namoyish etilishi yoki tarqatma material sifatida har bir tinglovchiga tarqatilishi ham mumkin);

– shundan so'ng o'qituvchi tinglovchilarga o'zlari istagan yo'nalishdagi tushunchalar asosida o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanib, mustaqil tarzda matn tuzishlari haqida topshiriq beradi va ulardan birini namuna sifatida bajarib ko'rsatadi;

– o'qituvchi tinglovchilar mazkur topshiriqni bajarishlari uchun mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda muayyan vaqt chegarasini belgilab beradi;

– tinglovchilar topshiriqni bajarib bo'lganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot uchun ajratilgan vaqt taqsimotidan kelib chiqqan holda iloji boricha ko'proq tinglovchidan topshiriqqa yozgan javoblarini o'qib berishlarini so'raydi (shu jarayonda o'qituvchi bir tinglovchi o'z fikrini bayon etib bo'lganidan so'ng qolgan tinglovchilarga ushbu tinglovchi tomonidan xatolikka yo'l qo'yilgan yoki qo'yilmaganligini so'rab murojaat qilish orqali munozarali vaziyatni vujudga keltirishi mumkin);

– tinglovchilarning fikrlari tinglab bo'linganidan so'ng o'qituvchi ushbu fikrlarga xulosa qiladi.

Masalan, "Pedagogikada tadqiq etish metodlari" mavzusi bo'yicha:

1) Pedagogika va Yunogogika tarkibidagi o'rganish hamda tadqiq etish metodlarini tasniflash, klassifikatsiya qilish.

2) Ta'lim-tarbiya jarayonida tadqiqot metodlaridan keng foydalanish..

2-topshiriq. “ Bugungi yoshlar -Uchunchi renesans yaratuvchisi ” mazusida suhbat uyushtirish, zamonaviy maktab taraqqiyotining asosiy xususiyatlarini tahlil qilish, o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talabalarni va shart-sharoitlarni aniqlash.

3-topshiriq. Televidenie orqali ta’lim sohasidagi prezident chiqishlari yozilgan videolavhalar bilan tanishish. Ko‘rilgan lavhadagi faktlarga asoslanib, ta’limdagi islohatlarni aniqlash.



O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. Рожков М.И. Педагогическое обеспечение работы с молодёжью. Юногогика. –М.:Гуманитар. Изд.центр ВЛАДОС, Учебное пособие для студентов вузов, 2008.-246с.
2. Подласый И.П. Педагогика: в 3-х кн. –Москва: ВЛАДОС, 2013
3. Xodjaev V.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.
4. Ишмухаммедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар Ўқув қўлл. – Т.:Фан ва технология, 2010

3-MAVZU. Shaxs va individuallik. Ijtimoiylashuv va yoshlar ta’limi.

Tayanch tushunchalar: shaxs, shakllanish, individ, individuallik, omillar, ta’lim, ijtimoiylashuv, muhit, biologik omil.

Shaxsni shakllanish jarayonlari va Individuallik

Dunyoga kelgan go‘dak ma’lum yoshga qadar individ hisoblanadi. “Individ” lotincha “individium” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “bo‘linmas”, “alohida”, “yagona” ma’nolarini anglatadi. Individ biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudotdir. Shaxsning shakllanishida harakat o‘ziga xos omil sanaladi. Go‘dak (chaqaloq) ham turli harakatlarni qiladi. Biroq, bu harakatlar keyinchalik shartli reflekslar bo‘lib, ongli ravishda emas, balki shartsiz va shartli qo‘zg‘otuvchilarga javob tarzida yuz beradi.

Go‘dakda nutqning hosil bo‘lishi, shuningdek, uning tomonidan tashkil etilayotgan harakatlar ongli ravishda sodir bo‘la boshlanishi va albatta, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirokining ro‘y berishi shaxs shakllanishining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a‘zosini ifodalashga xizmat qiladi.

Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta’sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘shida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta’sir etadi.

Inson butun umri davomida o‘zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo‘lsa, u jamiyat a‘zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta’siri ostida

boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxsning ijtimoiylashuvi - ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi. Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining sifat xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga (uning xususiyatlari, sifatleri, o'ziga xosliklari) ko'ra murakkabdir. Ana shu sababli u o'zida turli fanlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil - madaniy, axloqiy, xuquqiy, mehnat, psixologik ko'rinishlarini aks ettiradi. Yunogogika haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv jarayoni Yunogogikaning predmeti, sohasi va ehtiyojlarining o'ziga xosligini hisobga olib, pedagogik ijtimoiylashuv turi sifatida alohida e'tibor bilan qarab o'tiladi. Bu insonning dunyoga kelgan vaqtdan boshlab ijtimoiy belgilangan va muhim pedagogik yangidan shakllanuvchi tajribalarni - tarbiyalanganlik, ta'lim olganlik, ma'lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o'zgarib borishi (mukammallashuvi) jarayoni va yuzaga kelish natijasidir. Bu holda shaxsga nisbatan sust ravishda yondashuv kuzatilmaydi, balki u ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik tizimning sub'yekti sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o'z-o'zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o'z hayot yo'li uchun javobgarlikni his etuvchi sub'yekt sifatida qaraladi. Pedagogikaning vazifasi - insonga fikrlovchi shaxs, ijtimoiy faol fuqaro bo'lib yetishishiga, jamiyatda o'z o'rnini va xulq-atvorini, o'z istak-maqsadlarini yo'nalishini anglaydigan, pedagoglar va jamiyatdagi pedagogik

tizim bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga yoʻnalgan shaxs boʻlishiga yordam berishdir.

Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy mexanizmlari mavjud:

ana'naviy - oila va yaqin muhit orqali o'quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb etish, faoliyat va muloqotda maqbul shar-sharoitlarni yaratish;

institutsional - ijtimoiy institutlar va ta'limmuassasalari tomonidan o'quvchilarning rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish;

shaxslararo - o'quvchilarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jalb etish, ularda muloqotmandlik malakalarini rivojlantirish;

refleksiv - o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini loyihalashni pedagogik qo'llabquvvatlash orqali individual ongni taraqqiy ettirish.

Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy mexanizmlari mavjud: ana'naviy, institutsional, shaxslararo, refleksiv O'quvchilarni ijtimoiylashtirishning muhim sharti ularda ijtimoiy kompetentlikni qaror toptirishdir.

Ijtimoiy kompetentlik insondan ijtimoiy vaziyatlarga yoʻnalganlik va boshqarish qobiliyatini talab etuvchi boshqa kishilar bilan kommunikatsiyani yoʻlga qoʻyishda oʻz ifodasini topadi. Ijtimoiy kompetentlikning asosiy funksiyalariga moslashuv, ijtimoiy orientatsiya, shaxs integratsiyasi va umumijtimoiy tajribani kabilar kiradi. Ijtimoiy tajriba o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning integral natijaviy tavsifini o'zida aks ettirib, faoliyatga yo'naltirilgan va aksiologik yondashuvlarga asoslanishni talab etadi.

Faoliyatga yoʻnaltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan ijtimoiy tajriba o'quvchining boshqa kishilar, atrof-muhit bilan o'zaro harakati natijasida yuzaga keluvchi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ustanovkalar yig'indisini o'zida aks ettiradi. Ana shu sababli shaxsda o'z-o'zini tashkillashtirish va o'zo'zini korrektsiyalash madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan "o'z-o'zini boshqarish tajribasi"ni ijtimoiy tajribaning komponenti sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

O'z-o'zini boshqarish tajribasini shakllantirishning asosiy ijtimoiy sohalari sifatida individni sub'yekt-sub'yekt munosabatlariga jalb etish;

sub'yektda tashabbuskorlikni shakllantirish;

Hayotiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini tashkillashning universal namunalarini qabul qilish kabilarni kiritish mumkin.

Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan shaxsda ijtimoiy tajribani shakllantirish ikkita o'zaro aloqador yo'nalishda amalga oshadi. Birinchidan, inson hayotining mazmuni, shaxslararo munosabatda ma'naviy-axloqiy me'yor va qoidalar sifatida individda qadriyatga yo'naltirilgan orientatsiyani shakllantirish, ikkinchi tomondan shaxsiy nuqtai nazardan yuqori mavqega ega o'z-o'zini boshqarishda aks etuvchi o'zaro birgalikdagi faoliyat jarayonidagi xatti-harakatlar, ijtimoiy va hayotiy ahamiyat kasb etuvchi xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish bilan bog'liqlikni o'zida aks ettiradi.

O'quvchilarni o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish pedagogik hodisa sifatida shaxs salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq intellektual, emotsional-hissiy va faoliyatga yo'naltirilgan sohalar uyg'unligini talab etadi hamda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish asosida ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim: ijtimoiy moslashuv: ijtimoiy vaziyatlarda o'zining rolini aniqlay olish, vaziyatga moslashuvchanlik va safarbarlik; loyihaviy: ijtimoiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini anglash, individual xulq-atvor strategiyalarini tanlay olish; interiorizatsiya: ijtimoiy faoliyatning asosiy me'yorlarini qabul qilish va faoliyatda namoyon etish.

Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rni.

Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday? Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy- biologik omillarni yuqori

qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'mini belgilab bergan, deydilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan **preformizm** oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir ohim - **bixeviorizm** XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.


Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Falsafiy-antropologik yondashuv o'zining tadqiqotchilik va tarbiyaviy funksiyasiga ko'ra o'quvchining ma'naviy dunyosiga yo'naltirilgandir. Ana shu sababli mazkur yondashuv pedagogikadagi mavjud boshqa ilmiy yoki gnoseologik yondashuvlardan farqli ravishda muloqot va o'zaro bir-birini tushunish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni talab etadi. Mazkur yondashuvning o'ziga xosligi ta'lim-tarbiya jarayonining barcha sub'ektlariga nafaqat dunyoqarash ko'rinishida, balki mavjudlik usuli tarzida qarashni talab etadi. Mazkur mavjudlik usulini birinchi navbatda borliqni anglab etish sifatida tushunish lozim. Ikkinchidan, mazkur mavjudlik usulini uzluksiz ravishda o'z-o'zi, boshqalar va boshqa madaniyatlar bilan muloqot tarzi sifatida aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagi shaklda aks ettirilgan.



Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya orqali amalga oshiriladi.

Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga etadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta' sirini ham yo'qotish mumkin.

To‘rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta’sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta’sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.

Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta’siri kuchli bo‘ladi. Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Bolalarning tarbiyasiga to‘g‘ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola orginizmining o‘sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi.

Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o‘tganlar. Bolaning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, palapartish va chala ishlaydigan, yig‘inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta’siri bo‘lib, o‘qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual - o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. “temperamentum” “qismlarning bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Individ” tushunchasi nimani ifoda etadi?
2. Odamning shaxs sifatida shakllanishining asosini nima tashkil etadi?

3. Shaxsning rivojlanishi tushunchasiga izoh bering.
4. Shaxs rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
5. Shaxs rivojlanishiga doir zamonaviy yondashuvlarni izohlang.
6. Shaxs rivojlanishining yosh davrlariga tavsib bering.
7. Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari deganda nima tushuniladi?

“NILUFAR GULI”- grafik organayzer

“NILUFAR GULI” chizmasi - muammoni echish vositasi. O'zida nilufar guli ko'rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to'qqizta katta to'rt burchaklar tashkil etadi. Tizimli fikrlash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida-kichik guruhlarda chizma tuzadilar: to'rt burchak markazida avval asosiy muammoni (g'oya, vazifa) yozadilar. Uning echish g'oyalarini esa markaziy to'rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to'rt burchaklarga yozadilar. Markaziy to'rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to'rt burchaklarga yozilgan g'oyalarni, atrofda joylashgan sakkizta to'rt burchaklarning markaziga yozadilar, ya'ni gulning barglariga olib chiqadilar. Shunday qilib, uning xar biri o'z navbatida yana bir muammodek ko'riladi. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida-kichik guruhlarda chizma tuzadilar: avval asosiy muammoni (g'oya, vazifa) yozadilar, so'ngra kichik muammolarni, ularning har biridan esa, kichik muammoni batafsil ko'rib chiqish uchun “kichik shoxchalarni” chiqaradilar. Shunga asosan har bir g'oyalar rivojlanishini batafsil kuzatish mumkin.



O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Рожков М.И. Педагогическое обеспечение работы с молодёжью. Юногогика. –М.:Гуманитар. Изд.центр ВЛАДОС, Учебное пособие для студентов вузов, 2008.-246с.
2. Подласый И.П. Педагогика: в 3-х кн. –Москва: ВЛАДОС, 2013
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.

4. Ишмухаммедов Р., Абдукодилов А., Пардаев А. Тарбияда инновatsion технологиялар Ўқув қўлл. – Т.:Фан ва технология, 2010

4-MAVZU. Yoshlar tarbiyasi.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, yoshlar tarbiyasi, tarbiya strategiyasi, tarbiya modellari, tarbiya metodlari.

Yoshlar tarbiyasi.

Insoniyat paydo bo‘libdiki, eng dolzarb, eng mashaqqatli va eng qiyin vazifa–yoshlar tarbiyasi masalasi bo‘lib kelgan. Barcha alloma, mutafakkirlar, millatning ziyolilari jamiyat rivoji, mamlakat farovonligi, tinchligu xotirjamligini yoshlar tarbiyasi bilan bog‘laganlar. Bu bejiz emas. Qayerda tarbiya masalasini ta‘lim bilan, milliy qadriyat, an‘analar, mentalitet bilan uzviy bog‘liqlikda hal etishga harakat qilingan bo‘lsa, o‘sha joyda rivojlanish, taraqqiyot bo‘lgan. Yoshlar ta‘lim – tarbiyasiga e‘tiborsizlik qilingan joyda esa inqirozlar, milliy o‘pirilishlar sodir bo‘lavergan.

Istiqlol adabiyotining buyuk vakillaridan Abdurauf Fitrat shunday degan edi: *“Agar dinga, Vatanga, molg‘a, jong‘a, avlodga muhabbatingiz bo‘lsa, agar dinning xalos bo‘lishi, shariatning rivoji, Vatan obodlig‘i, avlodning tinchligi, yaxshi nom qoldirishning chorasini xohlasangiz, sizning ilojingiz, avvalo, kasbi maorifdir. Qobiliyatlilarni tahsil uchun o‘qishga yuboring”*. Ushbu iqtibosda buyuk allomaning millat va Vatan kelajagi, yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qanchalar kuyunchaklik bilan yondashganini ko‘rishimiz mumkin.

Milliy mustaqillikning o‘tgan qisqa davrida buyuk mutafakkir, allomalar orzu qilgan niyatlarga yetdik, mamlakatimiz rivojlanishning mutlaqo yangi yo‘liga chiqib oldi. O‘zbekiston rahbari Sh.Mirziyoyev mazkur masala xususida to‘xtalib, shunday deydi: *“Odamlar adolat uchun jon beradi, adolat uchun kurashadi, adolat uchun o‘zini ham ayamaydi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda ana shunday mardlar o‘sib, voyaga yetmoqda. Men bugungi yoshlarimizni ko‘rsam, xayolimga shunday fikrlar keladiki, ey, sizlar boshqacha tarbiya olyapsizlar! Mutlaqo*

boshqacha! Bizning yoshligimizda bunday imkoniyat va sharoitlar yo‘q edi. Chunki biz boshqacha davrda yashaganmiz, boshqacha mafkuraning mahsuli bo‘lganmiz”.

Haqiqatan ham, bizning yoshlarimiz boshqacha tarbiya olmoqdalar. Shu o‘rinda, mustaqillik yillarida yoshlar tarbiyasidagi evolyusion o‘zgarishlar, yangilanish-lar hamda bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ayrim vazifalar to‘g‘risida ba’zi fikrlarni bayon etishni maqsadga muvofiq deb bildik. Jumladan, barchamizga ma’lumki, sovet mustabid tuzumi davrida milliy urf-odat, an’analarimiz, qadriyatlarimiz, boshqacha aytganda, tarbiyadagi an’anaviy – o‘zbekona unsurlar katta talofat ko‘rdi. Shakl jihatdan o‘zbek, ammo mazmun jihatdan o‘zbekchilikdan tobora uzoqlasha boshlagan edik. Bu narsa milliy madaniyatimiz, tafakkur tarzimiz, ongu shuurimizda, xatti-harakatlarimizda, ayniqsa, yaqqol ko‘rina boshlagandi.

Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq diniy, milliy qadriyatlarni tiklash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qatoriga qo‘shildi. Natijada mamlakat fuqarolari, ayniqsa, yoshlarimiz milliy xarakterimizni aks ettiradigan qadriyatlar bilan boyiy boshladilar.

Yoshlar dunyo-qarashi, tafakkur tarzining shakllanishida milliy tarixning o‘rni va ahamiyati katta. Ammo mustabid tuzum sharoitida o‘zbek xalqi hech qanday davlatchilik tarixiga ega emas, uning tom ma’nodagi tarixi 1917-yildan boshlangan, degan mafkuraviy soxta “nazariya”lar xalqimiz ongiga singdirila boshladi. Mustaqillik ana shu soxtakorliklarni bartaraf etdi.

Tarixdan ibrat olib yashash, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi.

Tarixni yozishda o‘ng tomonga ham, chap tomonga ham og‘masdan, faqat haqiqat va adolat nuqtai nazaridan yo‘l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisoli og‘u kabi insonni zaharlaydi, uning dunyoqarashini chalg‘itadi.

Tarixda soxtakorlikka yo‘l qo‘yish, aslida, millatni halok qilish, jamiyatni va insonni aldash, haqiqatdan chekinish bilan barobar. Shuning uchun ham mus-taqillik yillarida bu masala mafkuraviy jarayonlardagi ustuvor yo‘nalishga

aylandi. Mamlakat rahbarining tarixchi olimlar, ziyolilar bilan bo‘lgan uchrashuvlari, nashr etilgan “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” kabi asarlarida, shuning-dek, Vazirlar Mahkamasining tarix fani masalalari boyicha chiqargan qator hujjatlarida yoshlar dunyoqarashining shakllanishida tarix, jumladan, milliy tarixning o‘rni masalalari juda ishonarli tarzda o‘z aksini topgan.

Mamlakat rahbariyati yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda mafkura masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida belgilangan, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilmaydi, degan qoida muhim o‘ringa ega bo‘ldi. Ijtimoiy hayot sohalarida siyosiy ins-titutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligining e’tirof etilishi, aslida, jamiyatning yanada rivojlanishi, demokratik islohotlarni amalga oshirishga yaratilgan imkoniyat edi.

Hozirgi yigit-qizlarimiz bundan 20-25 yillar avvalgi tengdoshlaridan qator sifatleri bilan ajralib turadilar. Agar o‘sha davr yoshlarida tashabbusning sustligi, g‘oyaviy-mafkuraviy qaramlik, birovga ko‘r-ko‘rona ergashuvchanlik, voqea-hodisalarni tahlil etishda o‘z mustaqil fikriga ega emaslik kabilar ustunlik qilgan bo‘lsa, hozirgi yoshlarimizda o‘z qat’iy fikriga egaligi, o‘z iqtidorini namoyish etish imkoniyati mavjudligi, tashabbuskorlik, milliy-madaniy, mafkuraviy-siyosiy sobitqadamlik, tanlagan maqsad sari intilishdagi izchillik singari holatlarni ko‘rish mumkin.

Tarbiyaning maqsad va vazifalari.

Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to‘g‘ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo‘lishi zarur.

Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog‘lash g‘oyat muhimdir.

Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur. Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir. Mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi. Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish Tarbiyaning umumiy vazifalari: jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish; jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash; madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh hususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yosh hususiyatlari muayyan bir yosh davriga hos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psihologik hususiyatlardir. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta mahsus, kasb-hunar

ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi. Tarbiyaning mazmuni shahsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli hil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir. Ta'lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko'rish ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatidir. Mazkur holat ma'lum ijtimoiy voqea-hodisalar mohiyatini turli nuqtai nazardan baholash, ularning rivojini ko'ra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini kuzatish, ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi. . Ozbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada, amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi – erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bolgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yolidagi asosiy vazifa - bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlari, ya'ni, shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat.maqsadining aniqligi. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama ostirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya mazmunida oldinga qoyilgan maqsad va vazifalarga muvofiq oquvchilar tomonidan ozlashtirilishi lozim bolgan bilim, konikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatleri mohiyati aks etadi. Tarbiya mazmuni shaxsning shakllanishiga qoyiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bolib, ijtimoiy-

iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi goyalari asosda belgilanadi.

Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi. Tarbiyalanuvchilarning yosh hususiyatlari. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh hususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yosh hususiyatlari muayyan bir yosh davriga hos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psihologik hususiyatlardir. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi. Tarbiyaning birinchi hususiyati uning ko'p qirrali jarayon ekanligi bo'lib, unda maktab, oila, bolalar va o'smirlar tashkilotlari, mahalla, keng jamoatchilik, kinoteatr, televidenie, adabiyot va san'at ishtirok etadi.

Tarbiyaning yana bir hususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Ta'limdan farqli ravishda u bola tug'ilganidan boshlanadi, maktab yillarida, undan keyin va butun umr boyi davom etadi.

Tarbiyaning ta'limdan farqlantiruvchi yana bir hususiyati shundaki, u yahlit holda va konsentrik asosda amalga oshiriladi. Tarbiyaning turli tomonlari bir-biri bilan uzviy bog'langan. Boshlang'ich sinfda ham, o'rta va yuqori sinfda ham ayni bir narsa, masalan, Do'stlik, ahillik, vatanparvarlik va boshqalarni tarbiyalash ko'zda tutiladi.

Tarbiyaning yana bir hususiyati shundaki, bu jarayon ikki tomonlama hususiyatga ega bo'lib, unda bolaning o'zi ham faol ish-tirok etadi.

Tarbiyada qarama-qarshiliklarning ko'pligi yana bir hususiyatdir. Bu qarama-qarshiliklar bolalarda o'z tushunchalariga muvofiq datslabki paydo bo'lgan sifatlar bilan tarbiyachi tomonidan tarkib toptirilayotgan sifatlar o'rtasida O'quvchilarga qo'yilgan talablar bilan uni bajarish imkoniyatlari o'rtasidagi kurashlarda namoyon bo'ladi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun hizmat qiladigan etuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan insonni tarbiya-lash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti-hara-katini sekin-atsa ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilishi qobiliyatni tarbiyalaydi va aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson atsa-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflilik mehnat va qunt, irodani talab etadi. Bunda tarbiyachi bolalarning yosh hususiyatini e'tiborga olishi zarur.

Tarbiyaning samarali bo'lishi ko'p jiliatdan jamiyatdagi ijtimoiy intsitutlarning rivojlanishiga bog'liq. Ma'naviy va insoniy sifatlar-ning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va mu-nosabat muhim o'rin egallaydi. Bolalarni taqlidchanlik hususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma'naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga karatilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi.

Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviyaxloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning fakat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning , umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish. to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izoxdab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qaramaqarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq pedagogikasi tajribasi tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiqi

tufayli tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli hisobga olinmadi.

Tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga maxliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz tuda, olomon tarzida qarash qaror topdi, bu hol tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy ob'yekta bo'lmish shaxs va uning o'ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib taqaladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g'ayri ilmiy sinfiy partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliylikiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o'rganilmoqda. Natijada, O'zbekiston pedagogika fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o'ziga xos o'rni borligi tan olina boshlandi. Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo'ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida tarbiyaning o'rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkonini berdi.

Ta'limning milliy modeli — O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yangilangan sog'lom pedagogik tafakkur asosida tubdan isloh qilish, ta'lim tarbiya muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni intellektual, ma'naviy va axloqiy saviyasiga ko'ra rivojlangan mamlakatlardagi darajaga yetkazish bo'yicha belgilangan nazariy-metodologik, amaliy-pedagogik yondashuvlar majmui.

Ta'limning milliy modelida ma'naviy-intellektual jihatdan barkamol shaxsning o'z ijodiy qobiliyatini to'la namoyon etishini ta'minlash ko'zda tutiladi.

Jahon ta'lim tizimi tajribasida mutloq yangilik bo'lgan Ta'limning milliy modeli. shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish. singari 5 tarkibiy qismdan iborat. Jumladan, shaxs — kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'yekti va ob'yekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir. Ta'limning milliy modelining o'ziga xosligi tarkibiy qismning boshlanishidayoq yaqqol namoyon bo'ladi. Unda shaxsga ta'limning iste'molchisi, ya'ni ob'yektigina emas, balki uni amalga oshiruvchi, ya'ni ta'lim jarayonining sub'yekti sifatida ham qaraladi. Bu hol shaxsni ta'limning iste'molchisidan bu jarayonning ijrochisiga aylantiradi, uning faolligini oshirib, rivojlanishini tezlashtiradi.

Davlat va jamiyat — ta'lim hamda kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat kilishni amalga oshiruvchi, kadrlar tayyorlash va ularni kabul kilib olishning kafillaridir. Ta'limning milliy modeliga ko'ra, davlat va jamiyat o'z zimmasiga kadrlar tayyorlash ishini tashkil etish, ta'lim jarayonini nazorat qilish hamda tayyorlangan mutaxassislar faoliyatini yo'lga qo'yish kafolatini oladi.

Uzluksiz ta'lim — malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat kursatish muhitini o'z ichiga oladi. Ta'limning milliy modelim. shaxsning kamoloti umr buyi davom etadigan uzluksiz jarayon ekanligiga asoslanadi. Shuning uchun ham ta'lim tizimlarining barkamol insonni shakllantirishda ishtirok etishi lozim bulgan barcha bo'g'inlar faoliyati uzviy va uzluksiz bo'lishi ko'zda tutiladi. Ta'limning muayyan bosqichida biror shaxsda shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim, malaka va kunikmalar miqdori, tartibi hamda bajarilish jarayoni ayni shu uzluksiz ta'lim tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'ladi.

Fan — yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydi va ulardan foydalanadi, ilgʻor pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqadi. Taʼlimning milliy modelim.ning bu tarkibiy qismiga alohida ahamiyat berilgan. Chulki malakali mutaxassislarni tayyorlashda fan yutuklaridan foydalanilganidek, yuqori malakali mutaxassislar ishtirokisiz fanning rivojlanishi ham mumkin emas. Demak, fan bir vaqtning oʻzida tayyorlovchilik, isteʼmolchilik, rivojlantiruvchilik vazifalarini bajaradi.

Ishlab chiqarish — kadrlarga boʻlgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qoʻyiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiytexnika jihatidan taʼminlash jarayonining katnashchisi. Ishlab chiqarish Taʼlimning milliy modelim.ning eng asosiy qismlaridan biridir. Xalq xoʻjaligining muayyan sohasi uchun zarur boʻlgan kadrlar miqdori, ularni tayyorlashda tayanilishi lozim boʻlgan iqtisodiy va texnologik asoslar ishlab chiqarish. tomonidan belgilanadi. Jamiyatning moddiy boyliklari ishlab chiqarish. jarayonida yaratilgani uchun u kadrlar tayyorlash tizimining moliyaviy va moddiytexnikaviy taʼminotini ham amalga oshiruvchi sanaladi.

Taʼlimning milliy modelida kadrlar tayyorlash borasida xalqimizga xos milliy xususiyatlar maksimal darajada hisobga olinishi taqozo etiladi. Shuningdek, unda barkamol shaxsni shakllantirish hamda uning aqliy, kasbiy va maʼnaviy imkoniyatlarini eng samarali yoʻsinda ishga solish yoʻllari aniq hisobga olingan. Taʼlimning milliy modelim.da shaxsda shakllantirilishi zarur boʻlgan kasbiy va maʼnaviy sifatlarning uygunligiga alohida eʼtibor berilgan.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yoʻl) tarbiya maqsadiga erishishning yoʻli. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuygʻulari va xulqiga taʼsir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi oʻzining imkoniyatiga koʻra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq

shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish tarbiya usullari deb ataladi. Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo'yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o'zining tarbiyalanuvchilari bilan yo'l ochadigan o'rganilmagan so'qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo'llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to'g'ri qo'llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda.

Amaliyotda tarbiya vositalari tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta'sir ko'rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig'indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko'rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko'rsatish – bu usullar. So'z (keng ma'noda) – tarbiya vositasi, biroq replika taqkoshlash – usullar. Bu bilan bog'liqlikda ba'zan tarbiya metodlari qo'yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo'ladi.

Zamonaviy pedagogikada ba'zilar amaliy vazifalarni hal etishga, ba'zilar faqat nazariy vazifalarni o'zida aks ettiradigan o'nlab tarbiya tasniflari mavjud.

Metodlar o'ziga xos xarakteriga ko'ra ishontirish, mashq, rag'batlantirish va tanbeh berishga bo'linadi. Mazkur holatda metodning umumiy xarakterli belgisi u o'zida yo'nalganlikni, o'ziga xoslikni, qo'llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko'proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o'zida ishontirish, faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarning xulq-atvorini rag'batlantirish metodlarini qamrab oladi. A.S.Marenkoning tasnifida tarbiya metodlari guruhlar quyidagicha nomlanadi:

- tushuntirishli-reproduktiv,
- muammoli vaziyatli,

- o'rgatish va mashq metodlari,
- rag'batlantirish,
- to'sqinlik qiluvchi,
- boshqarish,
- o'zini-o'zi tarbiyalash.

Tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishi natijalariga ko'ra metodlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:


1. Axloqiy me'yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g'oyalarni shakllantirishga ta'sir etuvchi.

2. Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta'sir etuvchi.

Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog'liq bo'ladi. Tarbiya metodlari barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi.

O'quvchilar u yoki bu tarbiyaviy ta'sirga turlicha munosabatda bo'ladi. Bu ularning alohida xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o'rinli va samarali tanlanganligiga hamda mohirona qo'llanganiga bog'liq. Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Masalan, o'qituvchi birinchi sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida o'quvchilarni ular uchun yangi bo'lgan mehnat faoliyatini o'rgatishda o'quvchilarning xulq-atvor qoidalarini, ularda kun tartibi aniq bo'lishi muhimligini, ularga o'quvchilarning qat'iy tartibga amal qilishi zarurligini tushuntirish metodidan foydalanadi. Tushuntirish bilan bir qatorda sinfga to'g'ri kirib kelishga, ularni o'qituvchi va o'quvchilar bilan salomlashishga, tartib-intizomni saqlashga mashq qildirib boradi. Shuning bilan birgalikda birinchi sinf o'quvchilarini yuqoridagi jarayonlarga dars vaqtida odatlantirib boradi. Bu jarayonda ularning amalga oshirgan ijobiy ishlari, o'quv ishi natijalari rag'batlantirib borishni taqozo etadi. Ko'rinib turibdiki, o'qituvchi o'quvchilar

bilan tarbiya jarayonini olib borganda turli xil usul va metodlarni qoʻllaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, tasnif qilish zarurligini koʻrsatadi. Shuning uchun ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib guruhlariga ajratish mumkin. Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir oʻqituvchi (tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta oʻzlashtirib olish maqsadga muvofiqdir.



Birinchi guruh metodlarining vazifasi oʻquvchining ijtimoiy ongiga hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari qoida va meʼyorlari haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va meʼyorlar shaxsning eʼtiqodi, ishonchi va hayotiy qarashlariga aylanadi. Ushbu guruhga maʼnaviy, axloqiy, estetik, mafkuraviy, huquqiy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy va h.k. mazmundagi suhbatlar hamda namuna koʻrsatish metodlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruh metodlari yordamida oʻquvchida maʼnaviy mazmunga oid odatlar hosil qiladi. Oʻquvchi xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq maʼnaviy odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi.

Faoliyat oʻquvchilarning ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba boʻlib hisoblanadi. Ikkinchi guruh metodlari orasida pedagogik talab metodi ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarni bajarilishi, yaʼni ijtimoiy xulq-atvor meʼyorini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur boʻlgan aniq bir vazifani amalga oshirish, u yoki bu harakatni olib borishga undovchi boʻlishi mumkin.

Talablar bevosita yoki bilvosita qo'yilishi mumkin. Bevosita talablar qat'iy buyruq yoki ko'rsatma, ishchanlik, yo'l-yo'riq beruvchi tavsifdagi ko'rinishda bo'ladi. Bilvosita talablar kechinma, intilish tuyg'usini uyg'otishi ko'zda tutilgan holda maslahat, iltimos, ta'na qilish, faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otish tarzida namoyon bo'ladi. Talablar o'quvchida u yoki bu darajaja ong, asos, maqsad hamda e'tiqod mavjudligini nazarda tutadi. Ayni vaqtda o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablarning me'yorida bo'lishiga qat'iy ahamiyat berishi lozim.

Foydali faoliyat va maxsus tashkil qilinadigan vazifalar jarayonida ijobiy xulq-atvor va xarakterlarga o'rgatib boriladi.

O'rgatish – bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

O'rgatish o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi. Faoliyatda mashqlar mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoa faoliyati hamda o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilganligidir. Mashq qilish o'rgatish bilan yaqin aloqada bo'ladi. Agar o'rgatib borish negizida bolaning faoliyat jarayonini egallashi yotsa, u holda mashq qilish faoliyati shaxs uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish o'rgatib borishga suyangan holda ko'p bora takrorlashni, mustahkamlashni va takomillashtirib borishni nazorat qiladi, bular esa bora-bora ijtimoiy xulq-atvorning asosi bo'lib qoladi.

Tarbiyaviy amaliyotda ko'pincha maxsus pedagogik vaziyatlarni yuzaga keltirish zaruriyati tug'iladi, bunda mustaqil tanlash uchun imkon bo'ladi. Pedagogik vaziyatlarda o'quvchilar o'z fikri va xulq-atvorini qayta o'zgartirishi lozim bo'lgan sharoit yaratiladi.

Ikkinchi guruh metodlari orasida musobaqa o'quvchilar amaliy faoliyatlarini tashkil qilish metodlari samaradorligini oshirishning zarur va muhim sifati hisoblanadi. Musobaqa faoliyatining barcha sohalarida o'quvchilarning faolligi va ijodkorligini rivojlantirishga, o'quvchilar jamoasi faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi. Musobaqa to'g'ri tashkil qilinganda jamoa hissi

muvaffaqiyatli shakllanadi, intizom va o'quvchilarning uyushqoqligi mustahkamlanadi.

Musobaqaning alohida turi bo'yicha, shuningdek, tizimli tarzda ham uyushtiriladi: chunonchi, eng yaxshi sinf, eng yaxshi guruh, eng yaxshi jamoa, eng yaxshi maktab va h.k.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'zlari tashabbus va g'ayrat ko'rsatishi asosida musobaqani tashkil etishlariga, uning sharti va ko'rsatkichlarini ishlab chiqishlariga erishish muhimdir. Shuningdek, jamoaning umumiy muvaffaqiyati, qabul qilingan majburiyatning bajarilishi, musobaqa natijalarini stendlarda aks etishini ta'minlash to'g'risida g'amxo'rlik qilish zarur. Musobaqani rasmiy axborotlar uchun tashkil etish maqsadga muvofiq emas. Jamoatchilik fikri musobaqa faoliyatining muhim asosi bo'lib qoladi.

Birinchi va ikkinchi guruh metodlarini o'zaro bog'liq holda qo'llanishi orqali ong va xulq birligi yuzaga keladi, ammo bu o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki o'qituvchining tashkilotchilik mahorati hamda uning o'quvchi ongi, xulqiga ta'sir etadigan vositalar xususiyatlari, ahamiyatini ko'ra olishiga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda bugungi o'quvchi tarbiya natijasida ertagni komil inson, ya'ni jamiyatning barkamol a'zosiga aylanadi. Buning uchun uning ongi va tafakkuri rivojlanib, ijobiy fazilatlarni o'zida shakllantirib borishi lozim.

Xo'sh, inson ongi va u borliqni, atrof-muhitni anglashi uchun qanday faoliyat darajasiga yetishi kerak?

Inson ongi – uning idroki, aql orqali hayotiy va dunyoviy haqiqatni fahmlash asosida ma'naviy istiqbolli faoliyat darajasidir.

Aql kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilishdir.

Uchinchi guruh metodlariga shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir

ko'rsatishda foydalaniladi. Ushbu guruhga rag'batlantirish va jazo berish kabi metodlar kiradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Tarbiya tizimini rivojlantirish omillarini mukammal o'rganib, mazmunini yoritish.
2. Tarbiya va o'zbek tarbiyasiga ta'rif bering.
3. Tarbiya modellarini tushuntirib bering.

KUBIK METODI

Kubik. Bu usul ko'rilayotgan masalani turli tomondan, qadamba – qadam, osondan qiyinga tomon yo'nalishda tasavvur etish imkoniyatini beradi. Kubikning har bir tomoni muayyan topshiriqni ifodalaydi:

- Yoshlardagi turli kompetensiyalarni ifoda eting? Eslang va yozma ravishda ta'riflang?

- Taqqoslang: o'xshash va farqli tomomnlarini tahlil qiling?.

- . Ta'surotingizni izohlang? U sizni nima to'g'risida o'ylashga majbur qiladi? Xayolingizga nima keladi?.

- Tahlil qiling. Ularning g'oyalarida aqliy tarbiya(ilm, bilim, ong, tafakkur) qanday talqin qilingan?, Qanday tarbiyaviy anamiyatga ega?

- Qo'llang. Uni qaerda qo'llash mumkin?

- “ha” va “yo'q” larni asoslang. Bunda ishonchli dalillar va asoslovchi fikrlarni ayting.

“**Kubik**” usullarini qo'llash bosqichlari.

- Mavzu (tushuncha) e'lon qiladi.

- Tinglovchilar (talabalar) yakka tartibda ishlaydilar. Kubikning har bir tomoni uchun topshiriq berilib, 40 – 60 sekund vaqt ajratiladi

- Yakka tartibda ish tugaganidan so'ng, guruhlarda muhokama qilinadi.

- “kubik”ni har bir mikro guruhdan bir vakil taqdimot qiladi.

“kubik” usuli masala (topshiriq)ga turli tomondan yondashish malakalarini shakllantradi va talabalarning tahlil, sintez va baholash intellektuallik darajalarida fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Quyidagi jadvalga Yoshlardagi turli kompetensiyalarni tahlil qiling. Yoshlardagi turli kompetensiyalarni misollar tanlab yozing.



О‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. Рожков М.И. Педагогическое обеспечение работы с молодёжью. Юногогика. –М.:Гуманитар. Изд.центр ВЛАДОС, Учебное пособие для студентов вузов, 2008.-246с.
2. Подласый И.П. Педагогика: в 3-х кн. –Москва: ВЛАДОС, 2013
3. Ходжаев В.Х. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.
4. Ишмухаммедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновatsion технологиялар Ўқув қўлл. – Т.:Фан ва технология, 2010

5-MAVZU. Yoshlar ta’lim-tarbiyasi muammolarini tadqiq etishning ilmiy-pedagogik metodlari.

Tayanch tushunchalar: korreksiya, metod, interfaol metodlar, testlar, konsillium, ekspert, ekperiment, klassifikatsiya, empirik metodlar.

Yunogogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari haqida tushuncha.

Har qanday fan o‘zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlari orqali u o‘z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Hayotda va obyektiv dunyoni bilish nazariyasida nimani o‘rgatish va qanday o‘rgatish kerak, kimni qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liqdir. Nima qilish kerak va

qanday amalga oshirish lozim – degan muammolar o‘rtasida dialektik birlik mavjuddir.

Pedagogika o‘z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa hamda jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o‘rganadi. Shu ma’noda pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari deganimizda yosh avlodni tarbiyalash, bilim berish va o‘qitishning real jarayonlariga xos bo‘lmagan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish metodlari, uslublari hamda vositalari majmuini tushunamiz. Pedagogika o‘qitish, bilim berish, tarbiyalash jarayonlarini va ularning mohiyatini quyidagicha o‘rganishni nazarda tutadi:

1) ularning umumiy aloqasi, bir-birini taqozo etishi hamda o‘zaro ta’sir jarayonida bolalarni o‘qitish, tarbiyalash, fan, madaniyat, axloq va san’at, ta’lim-tarbiyaning qayerda amalga oshirilishidan qat’iy nazar uzviy aloqada bo‘lishi;

2) ularning to‘xtovsiz harakati, o‘zgarishi va taraqqiy etish jarayonida vujudga keladigan o‘qitish hamda tarbiyalash vazifalari, metodlarining o‘zgarishi, hamma bolalarni bir xil andozada o‘qitish va tarbiyalash mumkin emasligi;

3) bolalarning o‘shishida ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, aqliy va xulqiy faoliyat, so‘z va ish birligi mezonlariga tayanish;

4) bolalar kamolotiga ta’sir etuvchi an’ana, urf-odatlar, ular eskilik bilan yangilik, o‘rtasida yuz beradigan nizolarni hisobga olish, o‘zaro tanqid va hokazo.

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to‘g‘ri tanlansa ta’lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanib, pedagogika fani ham boyib boradi.

Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishda aniq ilmiy tadqiqot metodlari qo‘llaniladi.

Pedagogik tadqiqot metodlari — bu ilmiy nazariyalarni qurilishi, bog‘liqliklari, munosabatlari, qonuniy aloqalarini o‘rnatish maqsadida ilmiy ma’lumotlarni olish yo‘llaridir.

Pedagogikada psixologiya, sotsiologiya, fiziologiya, matematika fanlaridan kirib kelgan metodlardan tashqari pedagogikaning o‘zini metodlari ham keng

qo'llaniladi. Biz pedagogikani ilmiy tadqiqot metodlari deganda, yosh avlodni ta'limi, tarbiyasi, rivojlanishi jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish hamda ular to'g'risidagi ma'lumotlarni olish yo'l va usullarni tushunamiz.

Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishda umumnazariy metodlar: analiz, sintez, taqqoslash, induksiya, deduksiya, mavhumlashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, modellashtirish; sotsiologik metodlar: anketa, intervyu, reyting; ijtimoiy psixologik metodlar: sotsiometriya, test, trening; matematik metodlar.

Pedagogik tadqiqot metodlari nazariy va amaliy (empirik) turlarga bo'linadi.

Tadqiqotning nazariy metodlari ilmiy faktlarni tizimlashtirish, kengaytirish, aniqlashni taqozo qilib, hodisalarni tushuntiradi va oldindan izohlab, olingan natijalarni ishonchliligini oshirib, mavhumdan aniq bilimlarga o'tishni, turli tushuncha va farazlar orasidagi aloqadorliklarni o'rnatib, asosiy va ikkinchi darajalilarini ajratadi.¹

Pedagogikada shunday maxsus metodlar mavjudki, ular yordamida ta'lim-tarbiya jarayoniga oid muhim faktlar, turli pedagogik vaziyatlar mohiyatlari, mexanizmlari, xususiyatlari o'rganiladi.

Ob'ektiv dunyoni bilish, nazariyada nimani o'rganish va o'rgatish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liqdir.

Har qanday fan sifatida o'zining ilmiy tadqiqot usullariga ega. Bu usullari orqali o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Pedagogika fani o'z mazmun mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va nazariyalarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan o'rganadi. Ushbu ilmning ilmiy tadqiqot usullari deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimni qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, uslublari va vositalari majmui tushuniladi.

¹ (O' . J. Yo'ldashev tahriri ostida. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017, 27- bet.)

Pedagogikaning ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obykti va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur.

Ular quyidagilardir:

- muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi; ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
- vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
- tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv;
- tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;
- tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini bashorat qilish;
- tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

2. Ilmiy tadqiqot metodlariga qo'yiladigan talablar.

Har bir predmet uning metodlari bilan chambarchas bog'langan. Fan metodlari uning metodologiyasiga mohiyati va prinsiplariga bog'liq bo'ladi.

Pedagogikaning bunday mustahkam va ishonchli falsafiy asosi dialektik metoddir. Pedagogikaning hodisalarini o'rganish va ularning qonuniyatlarini aniqlash masalasida bir-biriga qarama-qarshi ikkita yo'nalish metofizik va dialektik yo'nalish mavjuddir. Metofiziklar pedagogikaning hodisalari va faktlarini o'zgarmas, vaqt, joy va konkret sharoitlardan tashqari boshqa ijtimoiy hodisalar bilan aloqasi bo'lmagan hodisa sifatida olib qaraydilar.

Dialektik metod esa metofizika talqiniga qarama-qarshi o'laroq, o'qitish, bilim berish, tarbiyalash jarayonlarini va ularning mohiyatlarini quyidagicha o'rganishni talab etadi:

1. Ularning umumiy aloqasi bir-birini taqoza etishi va o'zaro ta'sir jarayonida bolalarni tarbiyalash, o'qitishning turmush, siyosat, ideologiya, madaniyat, fan, ahloq, san'at, ta'lim- tarbiya muassasasi tarmoqlarining va ijtimoiy, maktab va oilaviy tarbiyalarini o'zaro bog'liqligi va boshqa.

2. Ularning to'xtovsiz harakati, o'zgarishi va taraqqiy etishi jarayonida ijtimoiy va ilmiy vazifalarining tug'ilishi natijasida kelib chiqadigan o'qitish va tarbiyalash vazifalari, forma va metodlarining o'zgarishi; tarbiyalash qisqa muddatli va tez olib boriladigan ish emas, balki qiyin va murakkab jarayondir, bolalarni andoza, universal sxema asosida o'qitish va tarbiyalash mumkin emas.

3. Bolalarning o'sishida miqdor va sifat o'zgarishlari jarayonida har bir maktab yoshining o'ziga xosligi, tarbiya va ta'lim bola shaxsining sifat jihatidan o'sish va tarkib topishi ekanligi, ong va ahloqning, so'z va ishning birligi va boshqa mezonlar.

4. Qarama-qarshi tomonlarni, an'analarni, qarashlarni va fikrlarni aniqlash va ochish jarayonida tarbiya va ta'limda turmush dialektikasida, yangi va eski o'rtasidagi kurash, shaxs va jamoa o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va hokazo.

5. Pedagogikaning qonuniyatlarini obyektiv o'rganishda dialektika kategoriyalari hodisa va mohiyat, sabab va natija, zaruriyat va tasodif, mazmun va

shakl, tarixiy va mantiqiy, umumiy va shaxsiy, asosiy va xususiy, aniq va abstrakt kabi kategoriyalar muhim ahamiyatga egadir.

Dialektikaning yuqorida ko'rsatilgan prinsiplari asosidagi pedagogika hodisalari, faktlari va jarayonlarini ilmiy tekshirish, ularning taraqqiy etish qonuniyatlarini bilish mumkin.

Binobarin, pedagogik tadqiqot metodlariga obyektivlik o'qituvchilik pedagogik faoliyatini oshirishga qaratilgan tadqiqot vazifalarining aniqligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, bolalar psixologiyasi qonuniyatlarini hisobga olish kabi talablar qo'yiladi. Lekin, bolalarni o'qitish va tarbiyalash amaliyotining o'zi hamma vaqt pedagogik tadqiqotlarning manbai hisoblanadi. Faqat maktab tajribalarigina har bir ilmiy nazariyaning haqqoniyligi hisbolanadi. Tadqiqot metodlarining tanlash fanning o'zi uchun muhim ahamiyatga egadir, uning metodlari qanchalik mukammal bo'lsa, shu fan oldida turgan aktual vazifalar shunchalik muvaffaqiyatli hal etiladi. Hozirgi pedagogik tadqiqotlarning metodlar tizimini to'la hal etilgan deb bo'lmaydi.

Ilmiy tadqiqot metodlarning tavsifi.

“Pedagogika tajribasini o'rganishda quyidagi metodlar: kuzatish, eksperiment, suhbat, o'quvchilar ijodini o'rganish, tarbiya muassasalarini hujjatlarini o'rganish turli xilda qo'shib olib borilishi mumkin”.

1. Ilmiy - pedagogik tadqiqotning asosiy metodlari kuzatish, suhbat, tekshirish, eksperiment metodlari singari faoliyat natijalarini o'rganishdan iborat.

2. Hozirgi vaqtda quyidagi metodlar asosida ishlaydi. Bular: pedagogik kuzatish, so'rash, o'quvchilar faoliyati natijalari va o'quv -tarbiya muassasalari hujjatlarini o'rganish, pedagogik eksperiment, modellashtirish, ilg'or tajribalarni o'rganish va yoyish, sotsiologik, matematika va statistika materiallarini ishlash kibernetika, anketa, intervyu olish va tasvirga olish singari metodlardan foydalaniladi. Pedagogik kuzatish murakkab va maxsus xususiyatga egadir. Bunda kuzatilayotgan pedagogik hodisaning mohiyatini ko'ra bilish, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarining o'zaro aloqasi dialektikasini, ulardan har birining individualligini aniqlay olish lozim. Har pedagog kuzatuvchan bo'lishi ayrim

hodisa va dalillarning tavsilotlarini payqay olish, ularni tahlil qila bilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Kuzatishlar biror maqsadga qaratilgan holda amaliy va sistemali yo'lga qo'yilgan bo'lsa, eng kerakli dalillarni, mazkur kuzatishdan o'z vaqtida chiqarilgan pedagogik-psixologik xulosalarni hisobga olgan holda tashkil qilinsa, samarali bo'ladi. Kuzatish ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va takomillashtirish maqsadida olib borilishi mumkin. Masalan, o'qitish jarayonida bolalarning qanday o'sayotganligi, darslar jarayonlarida bilim berish va tarbiyalash vazifalari birligi qanday amalga oshirilayotganligi; fan asoslarini o'rganishda o'quvchilarnig tafakkuri qanday faollashayotganligini va boshqalar aniqlanadi.

Ilmiy kuzatishda ba'zan tadqiqotchi chidamsiz, shoshqaloq va sistemali ish ko'rmasligi singari holatlarga yo'l qo'yilsa uning samaradorligi pasayadi.

Suhbat metodi. Ilmiy maqsadda olib boriladigan suhbatning aniq maqsadi, vazifasi, shakli va ularni o'tkazish metodikasi mavjud. Suhbatlar individual, guruhli va jamoa turlari bor. Tadqiqotchi suhbat olib borishni va uni kerakli maqsadli tomonga yo'naltira olishi g'oyat muhimdir. Suhbat olib boruvchi quyidagi pedagogik qoidalarga rioya qilishi shart:

- a) suhbat savollarini oldindan belgilash;
- b) vaqti va joyini belgilash;
- v) suhbat ishtirokchilarini belgilash (soni, miqdori);
- g) qulay sharoit yaratib ochiq suhbatlashish;
- d) suhbatdoshga o'z fikrini aytishga imkon berish;
- e) sergak va bachkana bo'lmaslik;
- j) suhbatdosh haqida biografik ma'lumotga ega bo'lish;
- z) olingan materialni o'z vaqtida ishlab chiqish va qo'shimchalar qilish.

Suhbatdan ilmiy xulosa chiqarish.

Kuzatish metodi. Kuzatish bolaning konsultatsiyaga kelishidan avval boshlanadi va yaxlit tekshirishlarni o'tkazish jarayonida davom ettiriladi. Kuzatish har doim aniq maqsad asosida o'tkaziladi. Bolani o'yin faoliyatini tashkil etish jarayonida kuzatish alohida ahamiyatga ega, ular bola bilan aloqa o'rnatishga

imkon beradi. Ayrim hollarda o‘yinchoqlar yordamida maxsus tekshirishlar o‘tkaziladi.

Rasmlarini o‘rganish metodi. Rasmlar bolani o‘rganishda muhim differensial-diagnostik vosita hisoblanadi. Bolada pedagog tomonidan tavsiya etilgan rasmlar xavotir uyg‘otsa, bolaga erkin rasm chizishni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Uning mavzu tanlay olishi, tasvirlash xususiyatlari, rasm chizish jarayoni yakuniy tashhis uchun qimmatli ma‘lumot hisoblanadi. Aqli zaif bolalar odatda mavzuni tanlashga qiynaladilar, ular sujetlar yaratmay, alohida odatiy predmetlarni tasvirlashga harakat qiladilar.

Tajriba-psixologik tadqiqotlar metodlari. Ular maxsus o‘rganilishi kerak bo‘lgan psixik jarayonni qo‘zg‘atuvchi ma‘lum vaziyatlarni yaratishni ko‘zda tutadi. Tajriba metodikalari yordamida u yoki bu holatlarning sabablari va mexanizmlarini ochib ko‘rsatish mumkin bo‘ladi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi. Maktab hujjatlarini tahlil qilish davlat qonunlarining amalda bajarilish darajasini, har bir xodimning faolligini aniqlash, ularning amaliy hayotdagi faoliyatidagi kamchilik va xatolarni aniqlashga va ularning topshirilgan ish uchun mas‘uliyatini oshirishga imkon beradi.

Maktab hujjatlarini;

- rejalashtirishning barcha turlari;
- umumiy ta‘limga doir hisob va hisobot;
- dars jadvali;
- o‘quvchilar tarkibi soni;
- sifati;
- ta‘lim- tarbiya ishlarini taqsimlash;
- o‘quvchilarning delolari;
- sinf jurnallari;
- o‘quvchining kundalik daftarlari;
- buyruqlar daftarlari;
- pedagoglar kengashi qarorlari daftari;
- maktab smetasi;

- maktab pasporti;
- inventarlar daftari va hokazolar.

Hujjatlarni tahlil qilishda o‘quvchilar kontingentining o‘sishi va kamayishi tavsifiga, bolalarning maktabga ketib qolishiga, ularning ayrimlari va sinf boyicha o‘zlashtirish darajasiga, rag‘batlantirish va jazolash choralarini to‘g‘ri tashkil qilinishiga, maktab pedagoglar tarkibiga va maktabning o‘quv - moddiy bazasiga alohida e’tibor beriladi.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi. O‘quvchilar ijodini hamda ularning turli faoliyatini (xatlari, kundaliklari, insho, bayon solgan suratlari, bajargan amaliy ishlari, namunalari, rejalari va hisobotlarini) o‘rganishi va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Bolalar ijodining ahamiyati shundaki, unda yosh avlodning tipik layoqati va xususiyatlari aniq ochib beriladi.

Bu metodni qo‘llashdan asosiy maqsad hozirgi yosh avlod ijodining manbalari va faktorlarini chuqur bo‘lishiga hamda rivojlantirish va takomillashtirishning to‘g‘ri yo‘llarini ko‘rsatib berishga qaratilgandir. Bizda bolalar ijodi shakllari turlichadir: olimpiadalar, tematik konkurslar, maktab ko‘rgazmalari, turli xil musobaqalar, poxodlar, quvnoq startlar, ziyraklar va topqirlar, iste’dodlar va hokazolar.

Eksperiment metod. Bu so‘z lotincha sinab tekshirib ko‘rish, ilmiy maqsadga qaratilgan tajriba ma’nosini anglatadi. Ta’lim-tarbiya ishlarida qo‘llaniladigan biror shakl, metod va vositaning foydaliligini aniqlash va tekshirish uchun o‘quv yurtlarida o‘tkaziladi.

Eksperiment metodlari sharoitiga qarab turli xil qo‘llaniladi.

1. Tabiiy eksperiment (yaratuvchi, ixtiro qiluvchi eksperimentlar. Asl holicha ta’lim-tarbiya muammolari ma’lum, suhbat, kuzatish va anketa asosida o‘quvchining o‘qish jarayonida, o‘z- o‘zini nazorat qilish singarilar) aniqlanadi.

2. O‘quvchilarning ongliligini yaratuvchi eksperiment. (tadqiqotchi biror ma’no boyicha taxminiy reja asosida o‘quvchi faoliyatining o‘quv jarayonida o‘zini-o‘zi nazorat qilish usullarini, yo‘llari tekshirilib ma’lum bir ilmiy pedagogik xulosa chiqariladigan tajriba deyish mumkin). Bu metoddan chiqarilgan xulosalar

boshqa hamma maktablar hayotiga tadbiiq qilinishi uchun nazorat eksperimentidan o'tkazdiriladi. Chiqarilgan pedagogik xulosa esa o'z navbatida mazkur masalani hal qilishning nazariyasi va metodologiyasi bo'lib pedagogika yutug'i hisoblanadi.

3. Tabiiy eksperiment buning asoschisi rus psixologi A..F.Lazurskiy hisoblanadi. Bu metodda maktab faoliyati asl holda o'rganiladi. Masalan, maktab internatining tarbiyachilari o'quvchilarning o'zlari haqidagi g'amho'rlikini tabiiy tekshirishda pechda yoqadigan ho'l va quruq o'tin vositasida aniqlangan. Bolalar yashaydigan binoda yaqin joyda ho'l o'tin borligi, uzoqroq joyda quruq o'tindan foydalanishning samarasini tekshirishni ko'rsatish mumkin. Shunday qilinsa natija haqiqiy bo'ladi.

Eksperiment metodlari o'z mazmuni, turi va xarakteriga ko'ra quyidagi turlarga bo'linish mumkin: didaktik, tarbiyaviy, maktabshunoslik, chog'ishtirma pedagogika va hokazo.

Ilg'or tajribani o'rganish va yoyish metodi. Maktab ta'lim-tarbiyasida nazariy asoslanib, tajribada ilg'or o'qituvchilar faoliyatida sinolib o'rganishga tavsiya qilingan pedagogik xulosa deyish mumkin. Buyuk rus pedagogi K.D.Ushinskiy bu metod haqida "o'tkazilgan, xulosa qilingan asl tajriba to'g'risida emas, balki kelingan, uzatilgan, qilingan fikrdadir" - degan edi.

Statistika ma'lumotlarini analiz va sintez qilish metodi.

Pedagogik tadqiqot kerakli statistika ma'lumotlarini ma'lum bir maqsad bilan sistemali o'rganish va umumlashtirishsiz amalga oshmaydi. Chunki bu ma'lumotlar jamiyatimizda madaniyat, fan, tarbiya va ta'limning barq urib taraqqiy etish qonunlarining rivojlanishida muhimdir. Xalq maorifi byudjetining oshishi, o'quv yurtlarida bolalar sonining ko'payishi, maktabdan tashqari tarmoqlarning kengayishi, darsliklar, ko'rgazmali qurollar, texnika vositalarinig ortishi, o'qituvchi kadrlar tayyorlashi kabilar statistika ma'lumotlari bilan isbotlanadi.

Anketa metodi. Anketa fransuzcha so'z bo'lib, tekshirish degan ma'noni anglatadi. Anketa metodi o'quvchilardan so'rash metodi bo'lib, u o'quvchilar tarkibining sifati to'g'risida kerakli ma'lumotlarni olish uchun, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun, shuningdek kasbga yo'llashni belgilash uchun ma'lum

bir shaklda o'tkaziladi. Bu metodni qo'llashda quyidagi talablarga amal qilish kerak:

1. Anketalar o'quvchilarning pedagogik va ruhiy tavsifini tuzishning manbai va universal vositasiga aylantirmasligi kerak.
2. Anketalar juda katta va noaniq bo'lmasligi kerak.
3. Anketani o'tkazishda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish va vaqt normada berilishi kerak va hokazo.

Kibernetika metodi. Kibernetika grekcha so'z bo'lib, rolni boshqaraman, idora etaman, boshqarish san'ati degan ma'noni anglatadi. Kibernetika ishlab chiqarishni, texnikani, tirik organizmlarni, kishilik faoliyatini boshqarishning umumiy prinsip va vositalarini ishlab chiqadi. Kibernetika mazmunini informasiya, dasturlashtirish, boshqaruvchi tizimlar, model yasash singari asosiy nazariyalar tashkil etadi.

Pedagogika kibernetika o'quv jarayonini, o'qitish va bilim berish jarayonlarini boshqarishning alohida shakli sifatida o'ziga xos xususiyatga ega, chunki pedagogik jarayon bilan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish o'rtasida juda katta farq bor.

Sotsilogik metod. Yuqoridagi sanab ko'rsatilgan metodlar qo'llashda tadqiq qilinayotgan o'quvchilar soni chegaralangan ularning kamchiligi ham shunda ekanligini bilishimiz darkor. Bunday paytda o'quvchilarning ko'pchiligi bilan ommaviy ravishda pedagogika fanining u yoki bu muammosini hal etishda sotsiologik metodini qo'llash talab qilinadi. Misol uchun maktab o'quvchilari o'zlarining bo'sh vaqtlardini qanday o'tkazishini aniqlash uchun tezlikda anketa savollari asosida so'rash ko'plab o'quvchilardan o'tkaziladi va aniq bir xulosaga kelinadi. Keyingi yillarda pedagogika fanida matematik metod va xususan statistika materillarini ishlash metodlari keng qo'llanilmoqda. Masalan: maktablarning birida matematika fani boyicha o'quvchilarning uy ishlarini bajarilishi o'rganilganda IV sinfda uy vazifalarini mustaqil bajarish -80%, VI sinfda-75%, VIII sinfda-55% tashkil qilganligi aniqlangan. Buning asosiy sababi nimaligi aniqlash darkor. Buning sababi ikki tomonlama yuz berishi mumkin.

Birinchi dan, mazkur matematika fanining o'quv dasturi murakkablashganligidan yoki shu fanni o'qitish sifati pastligidan izlash kerak .

Pedagogika ilmiy tekshirishlari metodlaridan biri nazariy pedagogik g'oyalarni tahlil qilish metodidir. Bu metod ta'lim- tarbiyaning chuqur muhim masalalarini ilmiy umumlashtirish bilan emas. Balki uni amalga oshirishda yangi qonuniyatlarni tajribaga asoslangan (empirik metod) yordamida amalga oshiriladi. Buni quyidagi misol bilan isbotlash mumkin. Shaxsni umumiy maqsadli rivojlantirish, shaxsni har tomonlama rivojlantirish bilan o'zaro aloqadorlikda amalga oshadi. A.S.Makarenko ta'kidlaganidek, odam organizmi alohida-alohida holda rivojlanmaydi, balki barchalari o'zaro uzviy bog'liqlikda bir vaqtda rivojlanadi degan xulosaga kelgan.

Testlashtirish - testlar yordamida bilim va ko'nikmalarni tekshirish usuli. testlashtirish insoniyat tarixidagi eng qad. hodisalardan biri hisoblanadi. Qadimgi Xitoyda fuqarolik xizmatiga kiruvchi amaldorlar shu usuldan o'tkazilgan. Ilk bor "aqliy test" atamasi 1890-yil amerikalik psixolog Jeyms Makkin Kattel maqolasida qo'llanilgan bo'lib, unda kollej o'quvchilarining intellektual darajasini aniqlash uchun g'ar yili qo'llaniladigan turkum testlar tavsiflangan. Fransuz psixologi A. Bine ham o'z tadqiqotlarini aqliy salohiyatni aniklash usullariga bag'ishladi. Niderlandiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Daniya, Fransiya, Isroil, Finlandiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va boshqa rivojlangan davlatlar testlashtirish bobida yetakchi hisoblanadi. Mazkur ro'yxatdan aholisining hayot tarzi yuqori bo'lgan mamlakatlarning joy olishi tasodifiy emas. Bu yerda testlashtirish qo'llanishi ta'lim sifatiga ta'sir etishi boshqaruv sifati bilan bog'liq bo'lsa, sifatli boshqaruv, o'z navbatida, aholi turmush darajasining sifatini oshirishga zamin yaratadi.

Testlashtirish 1898-yil AQShda bir nechta oliy o'quv yurtiga kirishda sinab ko'rib, abituriyentlar uchun o'rta maktab dasturlari asosida yagona testlashtirish tizimini yaratish zarurligi haqidagi xulosaga kelindi. 1900-yil ayrim xususiy tashkilot va untlar tashabbusi bilan kollejlarga qabul qilish bo'yicha imtihon kengashi, 1947-yil dekabrda esa ta'limni rivojlantirish bo'yicha Karnegi

jamg'armasi hamda kollejlarga qabul qilish bo'yicha imtixon kengashi tomonidan pedagogik testlashtirish xizmati tashkil qilindi.

O'zbekistonda oliy o'quv yurtlariga kirishdagi testlashtirish usuli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 1992-yilda joriy qilindi. Bu farmon ta'limni tubdan isloh qilish va demokratlashtirish jarayonini boshlab berdi, oliy o'quv yurtlariga qobiliyatli yoshlarni tanlab olishda ijtimoiy adolatni ta'minladi. O'zbekiston testlashtirish tizimi xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'ziga singdirib, milliy an'ana va mintaqaviy o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda rivojlanib bordi. Ilg'or mamlakatlardagi testlashtirishning 1 va 2 variantli modellari hamda universal savollar kitobchasi bilan bog'langan testlashtirish tizimi O'zbekistonda yanada rivojlantirildi. Shuningdek, yuqori darajada maxfiylikni muhofaza qilish, yoshlarning bilim va aqliy darajasini baholashda muvofiqlik hamda aniklikni ta'minlash uchun 1996-yil testlashtirishning ko'p variantli tizimi ishlab chiqilib joriy etildi. Davlat test markazining ko'p variantli texnologiyasi hamda yaxlitlashgan avtomatlashtirish tizimining dasturlari O'zbekiston Respublikasi davlat patent idorasi tomonidan berilgan 30 dan ortiq mualliflik guvohnomalari bilan qimoyalangan. Ko'p variantli testlashtirish natijalarining taxlili o'quv fanlarini o'zlashtirish darajasi, uning bo'limlari bo'yicha olingan bilimlarning chuqur va mustahkamligini izchil kuzatishga, ta'lim jarayonini tubdan takomillashtirish istiqbollari belgilashga imkon yaratadi, yangi pedagogik texnologiya, darelik va o'quv qo'llanmalarini yaratish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beradi. testlashtirishning ko'p variantlilik texnologiyasi, testologiyaning ilmiy asoslarini tadqiq qilish, testlashtirish natijalarini didaktik asosda taxlil etish, shuningdek, testlashtirishning turli tarmoklarda qo'llanilishi bo'yicha 1996 yildan buyon 18 kitob nashr etildi.

Testlar metodi bolalarning psixodiagnostik maqsadlarda tekshirishda qo'llaniladi. D.Veksler tomonidan asoslangan moslashtirilgan test ommaviylashgandir. Undan foydalanish individualpsixologik tekshirishlarni o'tkazishda bola haqida zarur qo'shimcha ma'lumotlarni olishga imkon beradi.

O‘smirlik davrida o‘quv fanlarini turli o‘qituvchilar tomonidan o‘qitish munosabati yuzaga keladi. Bu orqali ularda kattalar shaxsi va faoliyatini baholashning yangi mezonlari shakllana boshlaydi. Masalan, bilimli, talabchan, haqqoniy, o‘quv materialini qiziqarli va tushunarli yo‘l bilan yetkaza oladigan o‘qituvchilarni ajratmaydilar, balki ularni ko‘proq hurmat qiladilar, yaxshi ko‘radilar va ular bilan bo‘ladigan munosabatlariga ham katta e‘tibor beradilar. 10-15 yoshli bolalarning faoliyat motivlarida ham o‘zgarishlar amalga oshadi. Ilk o‘smirlik davrida ko‘pchilik yoshlar o‘zlariga shaxsiy xarakteristika beradilar. Katta bo‘lgan sari ularning o‘z-o‘ziga bergan bahosi differensial xarakterda (xulq-atvor, ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutishi va ayrim xatti-harakatlar) namoyon bo‘la boshlaydi. Pedagogika oliy o‘quv yurtida bo‘lajak o‘qituvchilarni psixologik-pedagogik jihatdan tayyorlashni takomillashtirish talabalardagi o‘z kasbiga bo‘lgan psixologik qarashni qayta qurish hamda “ideal o‘qituvchi” obraziga tayangan holda olib borilishi zarur. Kasbiy faoliyat bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini rivojlantirishning asosiy vositasi ekanligi sababli talabalarning uzluksiz amaliyotda qatnashish jarayonini sifat va miqdor jihatdan kuchaytirish lozim.

Talabalar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ayrim hollarda ichki va tashqi vositalar, omillar ta’siri ostida uning ruhiy dunyosiga umidsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, istiqbolga ishonmaslik, ikkilanish, hadiksirash kabi salbiy his-tuyg‘ular namoyon bo‘ladi. O‘z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonmaslik, o‘qishga nisbatan esa salbiy munosabatning kelib chiqishi talaba ruhiyatida keskin tushkunlikni keltirib chiqarishi mumkin. Buning oqibatida ayrim yoshlar o‘ta zararli oqimlarga – aqidaparastlik, terrorchilik illatlariga qo‘shilib qolishi, giyohvandlik, ichkilik, qimorbozlik, turli jinoyat ishlari kabi jirkanch yo‘llarga kirib qolishlari mumkin. Uzluksiz ta’lim tizimida pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya ishlari metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilganda jamiyatning har bir a‘zosi ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirishda, mafkuraviy immunitet hosil qilishda, o‘quvchilarning o‘zligini anglashlarida, vatanparvarlikni, millatlararo totuvlikni, diniy bag‘rikenglikni, tolerantlikni shakllantirishda hamda komil insonga xos

bo'lgan fazilatlarni: sofdillik, to'g'riso'zlik, adolatparvarlik, sahovatlilik, ornomuslik, tantilik va boshqa sifatlarni tarkib toptirishda ijobiy samara beradi. Pedagogik tashxislash va yoshlarning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash masalalari bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo'lib borishi mustaqil O'zbekistonning har tomonlama rivojlanishidan, jamiyat a'zolarining ma'naviy-ma'rifiy hayotida paydo bo'lgan muammolarini hal etilayotganidan dalolatdir.

Pedagogik lug'atda "korreksiya" tushunchasi (yunoncha "correctio" — tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi. Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim das turiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korreksiya-hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyatdir. Bir qator olimlar: R.S.Nemov, D.V.Olshanskiy, G.Broyer, G.Matteslar: "Pedagogik korreksiya-tarbiya jarayonida yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi oldindan yo'l qo'yilgan nuqsonlarni bartaraf etish jarayonidir"-deb hisoblaydilar. N.V.Kuzmina bu jarayonni: «Korreksiyalash jarayoni-o'quvchilarning ongiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi va turli ijobiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi faoliyat turidir» -deb tavsiflaydi. Korreksiyalash ta'sirida o'quvchi-yoshlarning g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiya masalalari amalga oshiriladi. Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora

qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Demak, pedagogik diagnostika va korreksiya jarayonida bulardan birortasi (tafakkuri, ongi, hissiyoti, irodasi, qarashlari) e'tiboridan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

1) rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;

2) differentsatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;

3) anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;

4) rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;

5) bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish boyicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

6) anomal bolalikning oldini olish boyicha profilaktik chora tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

7) anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi vo'nalishlarda olib boriladi:

1. Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.

2. Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korreksionpedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.

3. Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi Yetimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.

4. Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo‘lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta’sir ko‘rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.

5. Ommaviy umumiy o‘rta ta’lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo‘lgan bolalarning umumiy va maxsus ta’limi mazmunini tahlil qilish.

6. Bolalarni rehabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo‘nalishlarini aniqlash.

7. Anomal bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o‘qituvchilarni tayyorlashda zarur o‘quv-metodik bazasini yaratish.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Pedagogik diagnostika nima?
2. Pedagogik korreksiya mazmunini tushuntirib bering?
3. Pedagogik korreksiyada qanday bolalar tarbiyalanadi?
4. Ilmiy-pedagogik metodlar tasnifi.

VENN DIAGRAMMASI METODI

«**VENN DIAGRAMMASI**» metodidan o‘rganilgan, bir -biriga bog‘liq mavzularni yoki ularning tarkibiy qismlarini tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash va mustahkamlashda foydalanish yaxshi samara beradi.

«VENN DIAGRAMMASI» metodini qo‘llash qoidalari:

- o‘qituvchi tinglovchilarni ikki yoki uch guruhga bo‘ladi;
- plakatga chizilgan diagramma doskaga osib qo‘yiladi (diagramma doskaga chizilishi yoki slayd orqali namoyish etilishi ham mumkin);
- o‘qituvchi tinglovchilar bilan har bir to‘g‘ri fikrga qo‘yila-digan ballarni oldindan kelishib oladi;

– o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan topshiriq bo‘yicha guruhlarining har qanday to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fikrlari ikki yoki uch xil rangdagi flamasterda diagrammaning tegishli joylariga yozib boriladi;

– shu vaqtning o‘zida kichik guruh ichidan biror tinglovchi sheriklarining ismi-shariflari to‘g‘risiga ular aytgan fikrlarni qayd qilib boradi;

– fikr bildirishlar nihoyasiga etgach o‘qituvchi va tinglovchilar hamkorligida to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar aniqlanadi;

– to‘g‘ri javobga necha ball qo‘yiladigan bo‘lsa, har bir noto‘g‘ri fikr uchun guruhning umumiy balidan shu miqdordagi ball olib tashlanadi;

– eng ko‘p ball to‘plagan guruh g‘olib hisoblanib, ular rag‘batlantiriladi;

– bu jarayonda kichik guruhda qayd etilgan javoblarning noto‘g‘ri-rilari o‘chirib chiqiladi va natijalar e‘tiborga olingan holda tinglovchilarga tabaqalashtirilgan ball yoki baho qo‘yiladi.

Yoshlarni ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishga tayyorlikni shakllantirishni

Venn diagrammasi asosida aniqlashtirish

Topshiriqni bajarish tartibi:

1) kichik guruhlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarida Jomiy va Yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash haqidagi fikrlarini oydinlashtirib olib, to‘ldiradilar.

2) juftliklarga birlashadilar, o‘zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to‘ldiradilar.

3) doiralarning kesishuvchi joyida ikki doira uchun umumiy bo‘lgan fikrlar ro‘yxatini tuzadi.

4) ish natijalarining taqdimoti.



O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. O‘. M. Asqarova, M. Xayitboyev, M. S. Nishonov. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T: “Talqin”, 2008, 15-bet.)

2. О‘. О‘tanov. “ Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti ”. Samarqand, 2016 12-13- bet.
3. Рожков М.И. Педагогическое обеспечение работы с молодёжью. Юношество. –М.:Гуманитар. Изд.центр ВЛАДОС, Учебное пособие для студентов вузов, 2008.-246с.
4. Подласый И.П. Педагогика: в 3-х кн. –Москва: ВЛАДОС, 2013
5. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.
6. Ишмухаммедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновациялар технологиялар ўқув қўлл. – Т.:Фан ва технология, 2010

6-mavzu. Yoshlar tarbiyasida ijtimoiy pedagogik faoliyat mazmuni, tuzilmasi va funksiyalari.

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy-pedagogik faoliyat, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy-pedagogik trenig, trenig vazifalari, trenig guruhlari

Ijtimoiy pedagogik faoliyatning mazmuni

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat deganda ijtimoiy tarbiya va ijtimoiy-pedagogik muhofaza qilish vazifalarini yechishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Hozirgi davr sharoitlarida turli ijtimoiy tuzilmalar ishida ijtimoiy pedagog olib boruvchi faoliyatning asosiy yo‘nalishlari belgilangan.

Bular:

moddiy yordam ko‘rsatish (nafaqalar va imtiyozlar, kundalik hayotda yordam);

ijtimoiy ishni tashkillashtirish (xodimlarni tanlash);

insonga ta’sir ko‘rsatish.

Insonga ta’sir ko‘rsatish - bu pedagogik va psixologik ta’sir ko‘rsatish jarayoni bo‘lib, mazkur ish bilan ijtimoiy xodim, ijtimoiy pedagog shug‘ullanadi.

Ijtimoiy pedagog ijtimoiy tarbiya, oilaviy tarbiya, bola shaxsiyati nimaligini, qanday muloqot usullari mavjudligini, tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashning xususiyatlarini bilishi lozim.

Ijtimoiy hodim ishining maktab pedagogi yoki sinf rahbari ishidan farqi nimada? Pedagog ko'pincha sinf yoki guruh bilan ishlaydi, uning ish metodlari asosan jamoa bilan ishlashni nazarda tutadi. Ijtimoiy pedagog ayrim shaxs, ayrim bola bilan, kichik guruh bilan, muayyan oila bilan ishlaydi.

Ijtimoiy hodimning asosiy vazifasi - bolani, o'smirni ijtimoiy himoya qilish, unga ijtimoiy yoki tibbiy yordam ko'rsatish, uning ta'lim olish, uni reabilitatsiya qilish yoki jamiyatga moslashuv jarayonini tashkillashtirish. Bu vazifalarni hal qilish uchun ijtimoiy pedagog bolani, uning holatini o'rganadi, uni yanada rivojlantirish yo'llarini rejalashtiradi.

Ijtimoiy-pedagogik muhofaza - ayrim tarbiyalanuvchining jismoniy, ruhiy va axloqiy-psixologik xavfsizligini ta'minlovchi omillar va vositalar tizimi, uning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish, uning ma'naviy va jismoniy kuchlari erkin rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy sharoitlar yaratish.

Ijtimoiy muammolar - inson maqsad va natija o'rtasidagi nomuvofiqlik sifatida tushunuvchi ziddiyat. O'suvchi organizm sifatidagi har qanday bola ijtimoiy hayotda muammoli vaziyatlarga duch keladi. Rivojlanishning har bir bosqichida bola va uni qurshagan muhit ijtimoiy vazifalarning yangi darajasi va o'z imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarni aniqlaydi. Agar me'yorlar o'z vaqtida o'zgartirilmasa, tegishli sharoitlar yaratilmasa, hayot uchun muhim vazifalarni mustaqil yechish yo'lida turli xil muammolar yuzaga keladi.

Mushkul vaziyatda bolani qo'llab-quvvatlash oson ish emas. Ijtimoiy hodim bolaga yordam berishga qodir bo'lgan mutaxassislar, ijtimoiy himoya xizmatlari bilan bog'lanadi. Buning uchun u professional tayyorgarlikdan o'tgan, ta'lim va tarbiya ishini olib borish uchun yetarli malakaga ega bo'lishi lozim. Bu pedagogik mahorat deb ataladi. Har bir o'qituvchi shaxsdir. Bola shaxsini shakllantirish haqida gapirganda, pedagog haqida unutmaslik kerak, chunki u tarbiyalanuvchiga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Pedagog kasbi o'zida individualdir. Har bir pedagogning bosh vazifasi - o'z ishining ustasi bo'lish. Pedagogik mahorat o'z kasbi sohasida individuallikni yorqin ifoda etish sifatida tushuniladi. Pedagogik mahorat unsurlari kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan belgilanadi.

Ko'nikmalarning quyidagi guruhlari farqlanadi:

1. Loyihalash ko'nikmalari.
2. Konstruktiv ko'nikmalar.
3. Tashkilotchilik ko'nikmalari.
4. Kommunikativ ko'nikmalar.
5. Gnostik ko'nikmalar.

Pedagogik mahorat zamirida pedagogik kompetentlik yotadi. Pedagogik kompetentlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar, standartlar va talablarga muvofiq pedagogik funksiyalarni bajarishga tayyorlik va qodirlikni belgilovchi professional-shaxsiy xususiyatlar tushuniladi. Professional - pedagogik kompetentlik pedagogik voqelikni izchil idrok etish va unga izchil ta'sir ko'rsatish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Professional kompetentlik o'z faoliyat sohasida erkin mo'ljal olishni nazarda tutadi.

Insonning kasbiy layoqati - muayyan ish funksiyalarini o'zlashtirish va muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar, jismoniy, ruhiy va axloqiy fazilatlarining zaruriy majmui. Pedagogik faoliyatga loyqlikni tavsiflovchi shaxsiy fazilatlar qatoriga yoshlar bilan ishlashga moyillik, kirishimlilik (boshqa odamlar bilan til topa olish), sipolik, kuzatuvchanlik, zehni o'tkirlik, tashkilotchilik qobiliyatlari, o'ziga o'ta talabchanlik kiradi. Bu fazilatlarining barchasini aniqlash va sinovdan o'tkazish mumkin.

Ijtimoiy hodim o'z kasbiy bilimlari va mahoratini oshirishi uchun pedagogik faoliyatning tarkibiy tuzilishini aniq tasavvur qilishi lozim.

Ijtimoiy hodimga zarur bo'lgan kasbiy bilimlar: pedagogika va psixologiya, bola rivojlanishi fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi. Ushbu bilimlar bolani o'rganish, uning qilmishlari va xulq-atvorini, o'zaro munosabatlari xususiyatlarini, boshqa bolalar guruhiga moslashuv yo'llarini tahlil qilish uchun zarur.

Ijtimoiy hodim bolalar faoliyati va hamkorligini tashkillashtira olishi lozim. Pedagogik texnologiya tushunchasi mavjud bo'lib, ijtimoiy hodim uni ham yaxshi bilishi zarur. Bu tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari va ko'nikmalarini o'zlashtirishni anglatadi. Pedagogik texnika va shakllangan ko'nikmalar ijtimoiy pedagogni kasbiy mahorat cho'qqilariga olib keladi. Bu tarbiyalanuvchini tushuna bilish, qilmishga, insonga o'z munosabatini bildira olish, ayni vaqtda o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi tahlil qilish qobiliyatini anglatadi.

Pedagog har bir bola bilan til topa olishi lozim. U pedagogning har bir so'zi bola hayotida ulkan rol o'ynashini yodda tutishi kerak.

Ijtimoiy hodim nutq madaniyati va texnikasiga e'tibor berishi lozim. Nutq madaniyati o'z fikrini aniq, lo'nda va o'rinli bayon etish ko'nikmasi bilan belgilanadi. Nutq texnikasi nafas olish, ovoz va diksiya usullari bilan belgilanadi. Bularning barchasini uzoq mashq qilish yo'li bilan o'zlashtirish mumkin.

Ijtimoiy hodim teatr pedagogikasi unsurlarini ham o'zlashtirishi muhimdir. Zero pedagog ishi rejissyor ishi, aktyor ijodiga yaqin turadi.

Ijtimoiy hodim tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi, tez qaror qabul qilishi va ishni tez tashkillashtira olishi lozim.

Hozirgi jamiyatda ijtimoiy pedagog ishi quyidagilar uchun zarur:

- maktabda, tarbiyasi og'ir bolalar bilash ishlash uchun;
- maktab-internatlar, bolalar uylarida;
- bolalar sanatoriyalari, sog'lomlashtirish markazlarida;
- ijtimoiy-psixologik yordam markazlarida;
- dam olish markazlari, yoshlar klublarida;
- yozgi mehnat va dam olish oromgohlarida.

Ijtimoiy pedagogik treninglar

Yuqoridagi barcha qonuniyatlarni hisobga olgan holda, shaxs tarbiyasi bilan shug'ullanish uni kelgusidagi murakkab va xilma-xil muloqot jarayonlariga pedagogik ayyorlaydi. Bunday tayyorgarlik, barcha soha mutaxassislari uchun muhim, chunki ular o'z kasblari tufayli turli muloqot vaziyatlariga duch keladilar va har bir vaziyatda ulardan nihoyatda o'tkir didlilik, odob va kishilar

psixologiyasini bilgan holda ularni to'g'ri tushunish malakasi talab qilinadi. Ijtimoiy pedagogikaning bu borada noyob usuli bor, u ham bo'lsa, ijtimoiy pedagogik treningdir. Trening usulining ijtimoiy-psixologik mohiyati shudaki, bu usul orqali odamlarda muloqot malakalari hosil qilinib, ular turli ijtimoiy sharoitlarda o'zini to'g'ri tutishga odatlantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, trening muloqotga o'rgatishdir. To'g'ri, odam kishilar jamiyatida yashar ekan, kundalik muloqot jarayonida turli muloqot shakllariga o'rganib, o'zida ma'lum muloqot malakalarini shakllantirib boradi. Lekin insonda bunday malakalar stixiyali tarzda yoki maqsadga qaratilgan holda ham hosil qilinishi mumkin. Oxirgi holat hozirgi zamon kishisining turli ishlab chiqarish va muomala sharoitlarida to'g'ri moslashishiga yordam beradi. Bu narsa insonda, ijtimoiy aql-zakovatning shakllanishiga olib keladi. Ma'lum bir muammolarni xal qilishda pedagogik trening deb ataluvchi o'yin va mashqlar to'plamidan iborat mashg'ulotlar yordam beradi. Shuni alohida qayd etish lozimki, trening jarayonida muammolarni yechish ham, bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish ham trenerdan shaxs psixologiyasi, shaxsning individual psixologiyasi bilan ishlashni taqozo yetadi. Shuning uchun pedagogikada bunday treninglar pedagogik treninglar deb ataladi. Har kandy pedagogik va psixologik treninglarni tashkil etish quyidagi bosqichlardan tashkil topdi:

□ guruhni tashkil etish yoki yig'ish bosqichi - trening guruhini, ya'ni treningda ishtirok etuvchilar guruhini yig'ishga qaratilgan bosqich;

□ boshlang'ich bosqich – guruh normalarni ishlab chiqish bosqichi. Guruhiy normalar guruhda mashg'ulotning dastlabki soatlaridanoq samimiylik, o'zaro ishonch, o'zaro hurmat muhitini vujudga keltirish maqsadida qabul qilinadi. Guruhiy normalarni ishlab chiqish jarayonida ishtirokchilar bilan bu normalarga albatta rioya qilish kerakligi tug'risida kelishish va har bir a'zoning roziligini olish kerak;

□ ishni olib borish bosqichi - bu trening jarayonini va mashg'ulotlarning qanday olib borilishi, ularning turlari, trening jarayonida qo'llaniladigan usullardan iboratdir;

□ yakunlash bosqichi – trening yopilishini yuqori hissiy to'liqlarda yakunlash tadbirini tayyorlash va o'tkazish, har bir ishtirokchiga qulay sharoit yaratish, ularga birgalikdagi faoliyatlari uchun o'zaro tashakkur bildirishlariga imkon berish, ulardan bo'lib o'tgan trening samarasi haqida fikrlarini so'rash, hamda ishtirokchilarga nisbatan o'z moyilligini namoyon etish, guruh ishtirokchilari bilan bo'lib o'tgan trening mashqlariga yakun yasash hamda erishilgan natijalar boyicha xulosa ilish bosqichi. Trening-inglizcha “maxsus rejim, trenirovka” degan ma'noni bildiradi. Kishilarda muloqot malakalari tasodifan yoki ta'lim mahsuli sifatida shakllanib boradi. Ijtimoiy psixologik treninglar ikki xil vazifani:

- 1) muloqot va pedagog muomala qonuniyatlarini o'rganish;
- 2) pedagogik kommunikatsiya texnologiyasini egallash, kasbiy pedagogik muomala ko'nikma va malakalarini shakllantirishni tahminlaydi.

Ijtimoiy pedagogik trening muammosining nazariy va amaliy tomonlari ajratib ko'rsatiladi. Amaliy tomoni trening ishtirokchilar bilan bo'ladigan muloqot ko'nikmalari va malakalarini egallashga va ularni chiniqtirishga qaratilgan mashqlar: darsning barcha bosqichlarida izchillik bilan harakat qilish malakalarini, pedagogik ish davomida mushaklarning zo'riqishini so'ndirish malakalarini, ixtiyoriy diqqatni taqsimlash malakasini shakllantirishga, kuzatuvchanlikni namoyon qilishga qaratilgan mashqlarni taqozo etadi. Ijtimoiy aql-zakovatga ega bo'lgan shaxs o'zini ham, o'zgalarni ham, ularning o'zaro munosabatlarini ham to'g'ri anglaydi hamda turli muloqot shakllarini bashorat qila oladi. Ana shunday aqlning bo'lishi uchun psixologlar maxsus tayyorgarlik guruhlari yoki trening guruhlari tashkil etishni taklif qilib chiqishgan. Shunday maqsadlarda g'arbda mashhur bo'lgan T-guruhlar tashkil etilib, unga ixtiyoriy muloqot jarayonida ma'lum qiyinchiliklarni his qilayotgan shaxslar taklif etiladi. Ijtimoiy psixologik treningning asosiy metodlariga

guruhiy munozaralar, rolli o'yinlar va psixologik sezgirlikni oshiruvchi treninglar kiradi. T-guruh a'zolari odatda 7 kishidan 15 kishigacha bo'lib, mashg'ulotlar bir necha kundan bir necha oylargacha davom etadi. T-guruhning ahamiyati shundan iboratki, u birinchidan, odamlar o'rtasida iliq o'zaro munosabatlarning shakllanishiga olib kelib, shaxsda birovni tushunishga intilish, uning manfaati yo'lida o'z qarashlarini ham qayta analiz qilish ehtiyojini paydo qiladi. Ikkinchidan, T-guruh a'zolari o'rtasida shunday umumiy "psixologik til" paydo bo'ladiki, ular tez orada o'zgalarni va o'z hiskechinmalarini anglabgina qolmay, balki bir-birlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ularda muloqot mobaynida o'zini "o'zgalar" o'rniga qo'yish, ularning ichki olamini to'g'ri tushunish qobiliyati va istagi tarbiyalanadi. Uchinchidan, T-guruhdagi mashg'ulotlar muloqot jarayonining turli murakkab qirralaridan tashqari, uning mazmuniy tomonlari boyicha ham ishtirokchilarni chiniqtiradiki, ular muomaladagi har bir ibora va imo-ishoraning tub ma'nosini tushunishga erishadilar. Masalan, "xayr, yaxshi qoling" iborasini uning qanday ohangda, qay holatda aytilishiga qarab, suxbatdoshning "yashirin" niyatlarini o'qib olish va shunga ko'ra harakat qilishga o'rgatadi. Muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapirish va tinglashning faol o'zaro ta'sir uchun teng ahamiyatga ega. Shu bois, ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o'rgatishga juda katta e'tibor berilib, bu uslubning nomi Ijtimoiy pedagogik trening (IPT) deb ataladi. IPT - muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda shakllantirish bo'lib, IPT mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi. Amaliy muloqot treningi – IPTning bir turi bo'lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo'ladigan kommunikativ malaka, ko'nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbirdir. Guruh va jamoalarda muloqot treningi vositasida muzokaralar olib borish, ish yuzasidan hamkorlik qilish yo'l-yo'riqlarini birgalikda topish, katta auditoriya oldida so'zlashga o'rgatish, majlislar

o‘tkazish, ziddiyatli holatlarda o‘zini to‘g‘ri tutish malakalari hosil qilinadi. Bunda rening qatnashchilari ongiga birovlarni tushunish, o‘zini o‘zga o‘rniga qo‘ya olish, boshqalar manfaatlarini bilan o‘zini uyg‘unlashtira olish g‘oyasi singdiriladi. Treninglar mobaynida guruhiy munozaralar, rolli o‘yinlarning eng optimal variantlari sinab, mashq qilinadi.

Muloqot– odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya’ni, har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan ishlari (mehnat, o‘qish, o‘yin, ijod qilish va boshqalar) o‘zaro munosabat va o‘zaro ta’sir shakllarini o‘z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishini, bir-birlariga turli xil ma’lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, ishlarining muvaffaqiyati, orttirgan obro‘si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Trening tushunchasi
2. Trening tashkil etish bosqichlarini tushuntiring
3. Trening guruhlari haqida ma’lumot bering
4. Ijtimoiy pedagogikl-psixologik treninglar.

«CASE STUDY» METODI

«CASE STUDY» (keys stadi) muayyan vaziyatlar orqali o‘rganish

– tinglovchilarni o‘qituvchi belgilab bergan real vaziyatni tahlil etish va hal qilish takliflarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan metod. Muayyan vaziyatlar (sud-tergov amaliyotidan olingan holat yoxud sun’iy tanlangan reallikka asoslangan bo‘ladi) tahlil indi-vidual yoki kichik guruhlarda amalga oshirilishi mumkin.

Tinglovchilarga amaldagi qonunlar va normativ-huquqiy huj-jatlarni, sud-tergov amaliyotidagi holatlarni amaliy qo‘llanmalar yordamida taqdim etish maqsadga muvofiq, zero muayyan holatlar o‘qitish jarayonining hayotiyligiga, ya’ni amaliyot bilan uzviy bog‘liqlikda olib borish imkonini beradi.

Keys tinglovchilarga mavzu doirasida muammoni aniqlashga, uni hal etish uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish, hal etish yoʻllarini erkin izlash, tahlil qilish va huquqiy baho berish koʻnikmalarini beradi. Keysni tahlil qilish jarayonida tinglovchilar bir-birlari bilan muloqot qilishning kommunikatsion holatlarini shakllantiradi. Keys stadi tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qoʻllash, tatbiq etishga asoslanadi.

1. Mashgʻulotga tayyorgarlik koʻrish:

Birinchi navbatda zarur:

- vaziyatni sinchkovlik bilan oʻrganish, guruh va har bir ishtirokchining holati (ahvoli) bilan tanishib chiqishga harakat qilish;
- vaziyatni hal etish jarayonida vaqt omilining ahamiyatini belgilash;
- harakatlarning tartibini yoki yordam koʻrsatish ketma-ketligini aniqlab olish;
- amalga oshirilishi lozim boʻlgan usullarni aniqlab olish;
- aniq vazifani hal etish uchun zarur boʻlgan vositalarni, ularning eng maqbul va minimal miqdorini hamda ular mavjud boʻlmagan holatda qanday harakatlar amalga oshirilishi mumkinligini aniqlash;
- bir nechta mavjud boʻlgan variantlar ichidan eng maqbulini tanlash va asoslantirish;
- mushkul ahvolga tushib qolgan ishtirokchi sheriklarining yordamisiz bu vaziyatdan qanday va nimalar yordamida chiqib ketishi mumkinligini koʻrib chiqish.

Keysga tayyorgarlik koʻrish uchun zarur:

1. Keys tuzish maqsadini aniqlash.
2. Maqsadga muvofiq keladigan real vaziyat yoki holatni aynan-lashtirish.
3. Keys uchun axborot manbasini topish boʻyicha dastlabki ish-larni amalga oshirish. Axborot izlash tayanch soʻzlar orqali Internet tarmoqlarida, bosma nashr kataloglarini, jurnallardagi maqolalarni, gazeta nashrlarini, statistika maʼlumotlarini tahlil qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

4. Turli manbalardan foydalangan holda keys uchun axborot va ma'lumotlar yig'ish.

5. Keysdagi materialni taqdim etishning dastlabki variantini tayyorlash. Bu bosqich o'z ichiga namuna tayyorlash, materialni joy-lashtirish, prezentatsiya shaklini (video, bosma va h.k.) aniqlashni oladi.

6. Keysni sinovdan o'tkazishdan avval iloji boricha kengroq auditoriya ichida muhokama qilib, kasbdoshlarning ekspert bahosi-ni olish. Bunday baholash natijasida keysga kerakli o'zgartirish-lar kiritilishi va u yanada yaxshilanishi mumkin.

8. Keysdan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni tayyorlash. Tinglovchilar uchun topshiriq hamda diskussiyani olib borish va keysni prezentatsiya qilish uchun savollarni ishlab chiqish, keysni muhokama qilish vaqtida tinglovchi va o'qituvchining taxminiy harakatlarini bayon qilish.

Real hayotdagi faktlar asosida muammoli vaziyatni tuzish Case-study metodining farq qiluvchi xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

2. Kirish.

Case-study asosidagi o'quv jarayoni samarali bo'lishi uchun ikki jihat muhim hisoblanadi: yaxshi keys va uni o'quv jarayonida qo'l-lashning muayyan metodikasi. Keys nafaqat muayyan hodisalarni ta'riflaydi, balki vaziyatni tushunishga yordam beruvchi yagona axborot kompleksi hisoblanadi. Bundan tashqari, u qo'yilgan muammoni hal etishga undovchi savollar jamlanmasini o'z ichiga olishi lozim.

Keys quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- tuzishdan ko'zlangan aniq maqsadga muvofiq bo'lishi;
- tegishli murakkablik darajasiga ega bo'lishi;
- fanning bir necha jihatlarini tasvirlashi;
- bugungi kunda dolzarb bo'lishi;
- tipik vaziyatlarni tasvirlashi;
- tahliliy fikr yuritishni rivojlantirishi;
- diskussiyaga undashi;

- bir necha echimlarga ega bo‘lishi;
- fanlararo aloqalarga ega bo‘lishi.

Ayrim olimlarning fikrilariga ko‘ra keyslar ikkiga, ya’ni «o‘lik» va «tirik» keyslarga bo‘linadi. «O‘lik» keyslarga tahlil qilish uchun barcha zarur bo‘lgan axborotlarga ega keyslar kiradi. Keysni «tiriltirish» uchun uni tinglovchilarni tahlil qilish uchun qo‘shimcha axborotlarni izlashga undaydigan tarzda tuzish kerak. Bu keysning rivojlanishini va uzoq vaqt davomida dolzarb bo‘lib qolishini ta’minlaydi.

Keys bilan ishlashda o‘qituvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan uchta strategiya mavjud:

- 1) o‘qituvchi masalaning uchini qo‘shimcha savollar yoki (qo‘shimcha) ma’lumot shaklida beradi;
- 2) ayrim sharoitlarda o‘qituvchining o‘zi javob beradi;
- 3) kimlardir muammo yuzasidan ishlayotganda o‘qituvchi hech narsa qilmasligi mumkin (so‘zsiz bo‘lishi). O‘quv vaziyati tahlil qilina-yotganda o‘qituvchi «faol» yoki «faol bo‘lmagan (passiv)» rolini egal-lashi mumkin. Ayrim paytlarda u muhokamani boshqaradi, ayrim vaqtlarda esa diskussiya bo‘yicha xulosa chiqarish bilan chegaralanadi.

3. Asosiy qism.

Amaliy mashg‘ulotlarda individual, juftlik va guruh tarkibi-da ish tashkil etiladi, tadqiqot loyihalari, rolli o‘yinlar qo‘llaniladi, hujjatlar va turli axborot manbalari bilan ish olib boriladi, ijodiy ish elementlaridan foydalaniladi.

O‘quv jarayonida keys bilan ishlashning texnologiyasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- 1) tinglovchilarning keys materiallari bilan yakka tartibda mustaqil ishlashlari (muammoni aniqlashtirish, tayanch muqobil variantlarni shakllantirish, echim yoki tavsiya etiladigan harakatni taklif qilish);

- 2) tayanch muammo va uning echimini topish bo'yicha kichik guruh-larda ishlash;
- 3) umumiy diskussiya jarayonida kichik guruhlar ishi natija-larini prezentatsiya qilish va ekspertizadan o'tkazish (o'quv guruhi doirasida).

4. Xulosa (refleksiya).

Interfaol metodlarni qo'llashda tinglovchi o'zlashtirish jarayonining to'laqonli ishtirochisiga aylanadi, uning tajribasi o'quv bilimining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi tayyor bilimlarni bermaydi, balki tinglovchilarda ularni mustaqil izlashga qiziqish uyg'otadi. Mashg'ulot olib borishning an'anaviy shakllariga nisbatan interfaol o'qitishda o'qituvchi va tinglovchi-ning o'zaro munosabatlari o'zgaradi: o'qituvchining faolligi tinglovchining faolligiga yon beradi, tinglovchilarning tashabbuskorli-giga sharoit yaratib berish o'qituvchining vazifasi bo'lib hisoblanadi.

O'qituvchi o'quv axborotini o'zidan o'tkazuvchi o'ziga xos filtr rolidan voz kechib, ma'lum bir axborot manbai bilan ishlashda yordamchi vazifasini bajaradi. Interfaol o'qitish hamjihatlik, o'zaro aloqadorlik, bir-birini boyitishni ta'minlaydi. Interfaol metodlar hech qanday tarzda ma'ruza materiallarining o'rnini bos-maydi, biroq uni yaxshiroq o'zlashtirishga ko'maklashadi.

Muammo	Kelib chiqish sabablari	Oqibat	Yechim
Bugun ko'pkina tarmoqlarda ota-onalar bolani kaltaklab tarbiyalamasligini uqtirib kelishmoqda hatto kaltaklash bola ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini aytib o'tishmoqda. Bolalarni kaltaklamasdan ularni ruhiyatiga			

<p>salbiy ta'sir ko'rsatmasdan tarbiyalashda jazoning qaysi turlari bugungi kunda samara bermoqda. Bugungi bolalar kattaga hurmat kichikka izzat kabi o'ziga xos milliy fazilatlarni unitib bormoqda. Bung anima sabab bo'lmoqda. Fikringizni bayon eting.</p>			
<p>Bugungi kunda yoshlarimiz zamonaviy axborot vositalaridan foydalanib internetgagi ayrim saytlarga va guruhlariga kirib qolishyapti ota-onalar bu jarayonga befarq va hatto bolalarini nazorat qilmay qo'yishmoqda. Ularning fikricha bolani haddan ziyot nazorat qilish va tergap turish unda erkin kamol topishga to'sqinlik qilar ekan bu fikr qanchalik to'g'ri. Bunday vaziyatda siz nima qilgan bo'lardingiz?</p>			



O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Рожков М.И. Педагогическое обеспечение работы с молодёжью. Юногика. –М.:Гуманитар. Изд.центр ВЛАДОС, Учебное пособие для студентов вузов, 2008.-246с.
2. Подласый И.П. Педагогика: в 3-х кн. –Москва: ВЛАДОС, 2013
3. Ходжаев В.Х. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.

4. Ишмухаммедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновatsion технологиялар ўқув кўлл. – Т.:Фан ва технология, 2010

7-MAVZU. Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining ijtimoiy-pedagogik faoliyati tamoyillari

Tayanch tushunchalar: yoshlar bilan ishlash, tashkilotchilik, shaxs shakllanishi.

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir.

Sh.M.Mirziyoyev

Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining umumiy tushunchalari.

Mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, ona Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g'oyalarga berilish va ergashish, jinoyatchilik hamda huquqbuzarlik, shuningdek, turli diniy oqimlar ta'siriga qo'shilib ketish holatlari hamon uchramoqda.

Joriy yilning 19-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sohani Yangi O'zbekiston talablari asosida yanada takomillashtirishga qaratilgan **«Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-92-sonli qarori** qabul qilindi.

Mazkur qaror asosida Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar

muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligi oshirish uchun har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etiladigan bo'ldi.

Har bir mahallada va barcha ta'lim muassasalarida **“Yoshlar balansi”**ni shakllantirish, yoshlar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni **“Yoshlar daftari”** va **“Yoshlar portali”** elektron platformalariga kiritib, ular bilan samarali ish tashkil qilish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko'maklashish masalalari bevosita yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari etib belgilandi.

Mazkur qaror asosida Yetakchilar o'ziga birlashtirilgan mahallalarda faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirishi belgilandi:

madaniyat va san'atni targ'ib qilish borasida – “San'at g'unchalari” ko'rik-tanlovi, maqom, baxshichilik va estrada bo'yicha “Yoshlar ovozi”, “Yosh musavvirlar” tanlovlari hamda “Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiyot festivalini o'tkazadi, shuningdek, yoshlar va bolalar teatr jamoalarini tashkil etadi;

sog'lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish borasida – mini futbol, voleybol, basketbol, stol tennisi, velosport, yugurish, shaxmat, shashka, badminton, kamondan otish bo'yicha musobaqalarni tashkil etishi, salomatlik uchun 5 000 qadam yurish marafoni hamda “Yosh ekolog” aksiyasini o'tkazadi;

axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish borasida – “Bir million dasturchi”, “Dasturlashga birinchi qadam” loyihalarini amalga oshirishi, kibersport chempionati va “Axborot texnologiyalari bilimdoni” tanlovini o‘tkazadi;

Ma’naviyat va kitobxonlikni targ‘ib qilish borasida – “Zakovat” musobaqasi, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Zukko kitobxon”, “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila”, “Xorijiy tillar bilimdoni” va “Yosh poliglot” tanlovlari hamda “Munozara” intellektual va milliy xalq o‘yinlarini tashkil etadi;

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish borasida – “Yosh chegarachi”, “Yosh qutqaruvchi”, “Quvnoq startlar”, “Temurbeklar”, “To‘maris malikalari”, “Shunqorlar”, “Yosh huquqshunos”, “Yosh saylovchi”, “Yosh deputat” tanlovlari hamda “Men ham askar bo‘laman” aksiyalari va harbiy qismlarga sayohatlarni tashkil etadi;

Tadbirkorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash borasida “O‘zbekiston uchun 100 g‘oya” va “Mahallaning ishbilarmon tadbirkori” tanlovlari, “Biznesga birinchi qadam” grant loyihasi hamda muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar bilan uchrashuvlar tashkil etadi;

Har chorakda mahallada yoshlar siyosatini samarali amalga oshirishda yuqori natijadorlikka erishayotgan mamlakat bo‘yicha eng ilg‘or 100 nafar Yetakchilar bir oylik ish haqiga teng miqdorda bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi;

faoliyatini samarali tashkil etayotgan, o‘zining shaxsiy fazilatlari bilan yoshlarga namuna bo‘layotgan va ularga yetakchilik qilayotgan Yetakchilar “Yangi O‘zbekiston islohotchisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanishi belgilandi;

Respublikamiz oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallaridagi yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektorga (direktor o‘rinbosariga) birinchi prorektor (direktorning birinchi o‘rinbosari) maqomi berildi;

Davlat umumiy o'rtta ta'lim maktablarida direktorning ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari yoshlar masalalarida idoralararo hamkorlik va Yetakchilar faoliyatiga ko'maklashish uchun mas'ul deb hisoblanadigan bo'ldi.

Yetakchilarning hamda Yoshlar ishlari agentligining mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash bo'linmalari xodimlarining shtat birliklari umumiy o'rtta ta'lim maktablaridagi 10 008 nafar yoshlar yetakchilari shtat birliklarini qisqartirish hisobidan shakllantirilib, ish faoliyati natijalariga ko'ra Yetakchilarni Milliy kadrlar zaxirasiga kiritish, bunda ushbu Yetakchilar tanlovsiz to'g'ridan-to'g'ri yuqori lavozimlarga o'tkazilishi mumkinligi belgilandi.

Yoshlar ishlari agentligiga faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, Yetakchilarni har chorak yakuni bo'yicha oylik ish haqining 50 foizigacha miqdorda mukofotlash huquqi berilganadi;

Boshqa hududlardan kelib o'z faoliyatini olib borayotgan Yetakchi uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravarigacha bo'lgan miqdorda turar joy ijara to'lovi qoplab berilishi, shuningdek, yil yakuni bo'yicha o'ziga birlashtirilgan hududda yuqori natijalarga erishgan Yetakchilarga ipoteka krediti asosida sotib olinayotgan uy-joy qiymatining 50 foizi miqdorida, biroq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrda PF-33-son farmoniga muvofiq belgilanadigan uy-joy hisoblangan qiymatining 50 foizidan yuqori bo'lmagan miqdorda subsidiya berilishi qayd etildi.

Qabul qilingan mazkur qaror asosida Yetakchilar uchun qulay sharoitga ega bo'lgan xizmat xonalarini ajratish va ularni moddiy-texnik jihozlar (mebel, kompyuter to'plami, aloqa, internet va boshqalar) bilan ta'minlanish, mahalliy budjet mablag'lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan Yetakchilarni "**Yoshlar daftari**" va "**Yoshlar portali**" elektron platformalariga ulangan, masofadan turib hisobotlar taqdim etish hamda videokonferensaloqa shaklida yig'ilishlarda ishtirok etish imkonini beruvchi planshetlar bilan ta'minlanish bilan birga, Yetakchilarni vazifa va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lmagan yig'ilish va boshqa tadbirlarga jalb qilish,

ularning faoliyatiga asossiz aralashish, taalluqli bo‘lmagan vazifalarni yuklash ishlari ta’qiqlanishi belgilab berildi.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, inson qadr-qimmatini yanada yuksaltirishga qaratilgan mazkur qaror bevosita xalq bilan, ayniqsa, yoshlar bilan yangicha tendensiyalar asosida ishlash orqali tizimda ijobiy samaradorlikka erishish, eng muhimi, “inson – oliy qadriyat” tamoyili asosida amalga oshirilayotganligi bilan diqqatga sazovordir.

Negaki, bugungi kunda jahonda kechayotgan ma’naviy tahdidlar dunyo mamlakatlariga o‘zning salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham, ma’naviy tahdidlarni o‘z vaqtida ilg‘ab, jaholatga qarshi ma’rifat bilan, g‘oyaga qarshi g‘oya bilan, har qanday muammoni o‘z vaqtida aniqlab, uni bartaraf etish – yoshlar siyosatining ustuvor masalalardandir.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asl mohiyati va pirovard maqsadi – bugungi murakkab va tahlikali zamonda xalqimiz ma’naviyatini yot g‘oyalardan himoya qilish, azaliy milliy qadriyatlarimizni saqlab qolib, rivojlantirish, yoshlarimizni Vatanimizga, milliy g‘oyamizga sadoqat ruhida tarbiyalashdir.

Yoshlar tashkilotchisining shaxs shakllanishiga ta’siri.

Bugun yoshlar ta’lim-tarbiyasi sohasini modernizatsiyalash “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” hamda mamlakatimizda «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili» Davlat dasturida belgilangan jarayonlar bilan uyg‘un bo‘lishi talab etilmoqda. Mana shunday yangi tarixiy vaziyatda «Yangi O‘zbekistonni har tomonlama innovatsion rivojlantirish uchun, Uchirnci Renessans poydevorini yaratishimiz uchun yoshlarimizda qaysi fazilatlarni kuchaytirib, qaysi illatlarga chek qo‘yishimiz kerak?», degan savollarga ilmiy javoblar kerak. Bu savolga esa, professor-o‘qituvchilar, olimu-ulamolar javob berishi va xalqimizni, yoshlarimizni bunyodkor ishlarga da’vat qilishi lozim.

Yoshlar bilan ishlash boyicha kasbiy tayyorgarlik keng qamrovli bo‘lib, turli xil kompetentsiyalarni qamrab oladi. Masalan: psixologik, iqtisodiy, huquqiy, sotsiologik va boshqalar.

Lekin ular orasida muhim o‘rinni:

tashkilotchilarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirishga tayyorligini;

tipik pedagogik muammolarni hal qilish va o‘z ishining natijalarini baholash qobiliyati;

yangi pedagogik bilim va malakalarni mustaqil egallashga tayyorlikni ifodalovchi pedagogik kompetensiya egallaydi.

Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining tipik pedagogik vazifalarining ushbu guruhlariga quyidagilar kiradi:

- yoshlar tarbiyasi;
- ijtimoiy ta’lim;
- kasbga yo’naltirish;
- deviant xatti-harakatlarning oldini olish;
- yoshlar hayotidagi voqealarni ijtimoiy va pedagogik qo‘llab-quvvatlash.

Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining pedagogik tayyorgarligining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

kontseptual komponent - pedagogika va uning fan sohasining nazariy asoslarini tushunish;

instrumental komponent - asosiy pedagogik mahoratga ega bo‘lish;

refleksiv komponent - o‘rnatilgan pedagogik qarashlar asosida pedagogik muammolarni hal qilishni rag‘batlantirish va tahlil qilish qobiliyati;

axloqiy komponent - belgilangan kasbiy va pedagogik axloqiy me’yorlar asosida pedagogik vazifalarni bajarishga tayyorlik;

prognostik komponent - o‘z ta’lim faoliyati natijalarini loyihalash va oldindan bilish qobiliyati.

Ushbu komponentlarning barchasi tashkilotchilar tomonidan aniq pedagogik vazifalarni hal qilishda o‘z aksini topadi.

Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining pedagogik kompetensiyasi

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassisning pedagogik kompetensiyasi - tashkilotchilarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirishga tayyorligi, tipik pedagogik muammolarni hal qilish va o'z ishining natijalarini baholash qobiliyati, yangi pedagogik bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallashga tayyorligi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, yoshlar tarbiyasi yo'nalishlarida mahalla mas'ullari, maktab ta'limida yoshlar bilan bevosita yaqindan ishlashadigan sinf rahbarlari, oliy ta'lim tizimida tyutorlar, Ota-onalar kengashi, Ustoz-shogird tizimi, Xotin-qizlar qo'mitasining joylardagi mas'ullari va Yoshlar ittifoqi tashkilotining o'rni, ularning fidoiyligi judayam muhimdir. Negaki, bugun davlatimiz Yangi O'zbekiston – «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» tamoyili asosida taraqqiyotning yangi – Uchinchi Renessans davrining poydevorini yaratishga qadam qo'ymoqda.

Bunda esa, yoshlarimizni O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi talablari negizida tarbiyalash, ularni mustaqil kasbiy ma'naviy hayotga tayyorlash – ta'lim-tarbiya muassasalarining barcha bo'g'inlarida faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchi, ustoz va murabbiylarning faoliyatiga bog'liqdir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining umumiy tushunchalari.
2. Yoshlar tashkilotchisining shaxs shakllanishiga ta'siri.
3. Yoshlar tashkilotchisining faoliyatini tashkil etish tamoyillari.

«MANTIQUIY ZANJIRLAR KETMA-KETLIGI» METODI

«MANTIQUIY ZANJIRLAR KETMA-KETLIGI» metodi biror mavzu yoki uning bir qismi haqida tinglovchilarga zarur ma'lumotlar berilganidan so'ng ularning berilgan bilimlarni qay darajada o'zlashtirganliklarini tekshirib ko'rish, olgan bilimlarini mustahkamlash, shuningdek tinglovchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida qo'llanilishi mumkin. Ushbu metoddan, asosan, mashg'ulot yakunida yoki mashg'ulotning bir qismi ko'rib chiqilgandan so'ng foydalanish mumkin.

«MANTIQUIY ZANJIRLAR KETMA-KETLIGI» metodini qo'llash

qoidalari:

– o'qituvchi tinglovchilarga mashg'ulot davomida berilgan ma'lu-motlar asosida tayanch tushunchalarni raqamlangan hamda chalkashti-rilgan holda doskaga yozib qo'yadi (slayd orqali namoyish etilishi yoki tarqatma material sifatida har bir tinglovchiga tarqatilishi ham mumkin);

– shundan so'ng o'qituvchi o'quv savollari sonidan kelib chiqqan holda tinglovchilardan daftarlariga shuncha ustun chizishlarini va har bir ustunni nomlashlarini (masalan, birinchi ustun birinchi o'quv savoli deb nomlanadi) so'raydi va tinglovchilardan doskaga yozilgan tayanch tushunchalarning qaysi biri birinchi o'quv savoliga, qaysinisi ikkinchi va boshqa o'quv savollariga taalluqliligini tasniflashni taklif etadi;

– tinglovchilar raqamlangan tayanch tushunchalarini tegishliligi bo'yicha ustunlar tagiga yozishlari lozim bo'ladi va buning uchun o'qituvchi tomonidan tinglovchilarga 3-5 daqiqa vaqt berish tavsiya etiladi;

– belgilangan vaqt tugaganidan so'ng o'qituvchi bir nafar ting-lovchidan o'zining javobini o'qib eshittirishini so'raydi va ushbu tinglovchi o'z fikrini bayon etib bo'lganidan so'ng o'qituvchi qolgan tinglovchilarga ushbu tinglovchi tomonidan xatolikka yo'l qo'yilgan yoki qo'yilmaganligini so'rab murojaat qiladi;

– tinglovchilarning fikrlari tinglab bo'linganidan so'ng o'qi-tuvchi to'g'ri javobni e'lon qiladi (doskaga yozadi yoki slayd orqali namoyish etadi).

Masalan, « Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida maktab va tarbiya » mavzusi bo'yicha ma'ruza mashg'uloti yakunida o'qituvchi doskaga mavzuga oid tayanch tushunchalarni chalkashtirilgan holda yozib qo'yadi (slayd orqali namoyish etilishi yoki tarqatma material sifatida har bir tinglovchiga tar-qatilishi ham mumkin). So'ngra tinglovchilardan mazkur tayanch tushunchalarning qaysi guruhga kirishiga qarab, ishtirokchilik bel-gilari, ishtirokchilik turlari va ishtirokchilik shakllariga tasniflash taklif etiladi.

1. Oddiy ishtirokchilik.

2. Tashkilotchi.
3. O‘zaro xabardorlik.
4. Uyushgan guruh.
5. Bajaruvchi.
6. To‘g‘ri qasdning mavjudligi.
7. Murakkab ishtirokchilik.
8. Dalolatchi.
9. Ikki yoki undan ortiq shaxsning qatnashishi.
10. Jamoa uyushma.
11. Yordamchi.
12. Hamkorlikda harakat qilish.

Ishtirokchilik belgilari	Ishtirokchilik turlari	Ishtirokchilik shakllari
3, 6, 9, 12	2, 5, 8, 11	1, 4, 7, 10



O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. Рожков М.И. Педагогическое обеспечение работы с молодёжью. Юногогика. –М.:Гуманитар. Изд.сентр ВЛАДОС, Учебное пособие для студентов вузов, 2008.-246с.
2. Подласый И.П. Педагогика: в 3-х кн. –Москва: ВЛАДОС, 2013
3. Ходжаев В.Х. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – Т.: SANO-STANDART, 2017.

8-MAVZU. Yoshlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish

Tayanch tushunchalar: kompetensiya, ijtimoiy kompetentlik, kompetentlik turlari.

Ijtimoiy kompetentlik tushunchasini mazmuni

Bugungi kunda bo‘lajak pedagoglar kasbiy faoliyatlariga qo‘yiladigan malaka talablarida, ularning ma‘naviy – ma‘rifiy faoliyatida bir qator vazifalar belgilab o‘tilgan. Jumladan, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkil etish metodikasini egallash, o‘quvchilar ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish; o‘quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish usul va texnologiyalarini bilishi; globallasuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ta‘siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish; mahallalarda ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari boyicha individual suhbat o‘tkazish; milliy urf-odat va marosimlarni o‘tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak deb aytilgan bo‘lib, aynan bu o‘qituvchining ijtimoiy kompetensiyalari sanaladi. Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish muammosining pedagogik muammo sifatida e‘tibor berilishi oliy o‘quv yurtlaridagi ta‘lim jarayonida kompetentli yondashuvni takomillashtiradi. Bu esa ijtimoiy kompetensiya mohiyatini “kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalari orqali oydinlashtirishni taqozo qiladi.

1996 yilda Yevropa Kengashi tomonidan Bernda o‘tkazilgan “Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar” simpoziumida zamonaviy bitiruvchilarning quyidagi 5 ta muhim kompetensiyalari aniqlandi.

Bular:

- siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar (o‘ziga javobgarlikni olish, qaror qabul qilishda ishtirok etish, ziddiyatlarni zo‘ravonliksiz hal qila olish);

- ko‘p millatli jamiyatda yashash kompetensiyalari (tafovutlarni ehtirossiz qabul qilish, o‘zgalarni hurmat qilish, boshqa madaniyat vakillari bilan o‘zaro munosabatga kirishish);
- bir va undan ortiq tilda og‘zaki va yozma muloqot qila olish;
- axborotlashgan jamiyatda yashash kompetensiyalari (yangi texnologiyalarni bilish, ularni qo‘llay olish, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ma’lumot, reklamalarga tanqidiy munosabatda bo‘lish);
- butun hayoti davomida uzluksiz ta’limni kasbiy tayyorgarlik kontekstida mustaqil o‘zini o‘zi o‘qitish qobiliyati.

Zamonaviy kasbiy ta’lim bo‘lajak mutaxassislarda yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishga qaratiladi. Uning markazida, G.P.Shedroviskiyning fikricha, “Erkin muloqotga asoslangan, hayot tarzini va aloqa shakllarini kommunikatsiya asosida o‘zgartira oladigan, va ijtimoiy javobgarlik tamoyiliga ega bo‘la oladigan individ” turadi. Lug‘atlarda “kompetentli” tushunchasi bir necha ma’nolarda keladi. Jumladan, muayyan kompetensiyaga ega bo‘lgan, ya’ni biror bir tashkilot, shaxs faoliyatida vujudga keladigan muammo, vaziyatlarga: *competentia* (lot.) qonun boyicha taalluqli funksiyalarni amalga oshira oluvchi; ma’lum savollar to‘plamiga javob bera oladigan, malakali mansabdor shaxsni anglatadi.

E.A.Seytxalilov, B.X.Raximov, I.U.Madjidovlar tomonidan chop etilgan “Pedagogicheskiy slovar-spravochnik” lug‘atida “kompetentli” termini “biror bir sohaga taaluqli bilimga egalik, xabardorlik”, “kompetensiya” so‘zini esa “ma’lum savollarga javoblarni yaxshi biladigan kishi”, yoki “biror ishni qilish huquqiga ega odamlar doirasi”, sifatida talqin qilinadi. Bugungi kunga kelib, “kompetensiya” tushunchasi ta’lim mazmunini modernizatsiyalashning, o‘zida ta’limning intellektual va malakaviy tarkiblari natijasini birlashtiruvchi markaziy tushunchaga aylandi.

Ta’limda kompetentli yondashuv zarur bilim bazasi shartligini inkor qilmaydi, balki kompetensiyaning integral natijadorligini ko‘zda tutadi. Shu o‘rinda O‘zbekiston pedagog olimlarining kompetensiyaviy ta’lim, kompetensiya masalalariga doir ilmiy nuqtai nazarlari katta qiziqish uyg‘otadi. Pedagogika

fanlari doktori M.Vahobov “Bizningcha “kompetensiya” deganda, o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarda qo‘llay olish layoqati tushuniladi”, deb hisoblaydi. “Kompetentlilik” va “bilimlilik” nisbati haqida so‘z borganda, pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslarini tadqiq qilgan olimlar N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov va A.B.To‘raevlar kompetensiyaning o‘rganish (mashq qilish) natijasida vujudga kelishini, kompetentlilik esa faoliyatda nazariy bilimlardan foydalanishda, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etishda namoyon bo‘ladi, degan uyg‘un qarashni olg‘a surganlar. Mamlakatimizda pedagog-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati, kompetensiyalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-metodik izlanishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi pedagog olimi M.B.Bekmurodov kompetensiya mutaxassisning o‘z bilimlari, ko‘nikmalari va harakatlarining umumlashgan usullarini safarbar qilish qobiliyati sifatida belgilashini bildirdi. Tayanch kompetensiyalar pedagog-mutaxassisning universalligini ta‘minlaydi va shuning uchun chuqur ixtisoslashgan bo‘lolmaydi. Mutaxassis o‘z kompetensiyalarini faqat faoliyatida, muayyan vaziyatda namoyon qiladi. Namoyish etilmagan kompetensiyalar esa, potensial imkoniyat sifatida mavjud bo‘lishini qayd qiladi.

Tadqiqotchilar I.A.Zimnyaya “kompetensiya” va “kompetentlik” kategoriyalarining mazmun jihatidan farqlarini keltirib o‘tgan. Ya‘ni kompetensiya – bu ma‘lum fan haqidagi protsedurali va qiymatli mazmunli bilimlar majmui bo‘lsa, kompetentlik esa – bu “bilimlarni qo‘llash – kompetensiyaning harakatga kelishi”, ya‘ni individning muayyan kasbiy vaziyatda faoliyat yurita olishini xarakterlovchi keys kategoriyadir. Bunday kompetensiyalarni I.A.Zimnyaya insonga shaxs, faoliyat sub‘ekti sifatida ijtimoiy soha xususiyatlari va odamlarning o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqishini ta‘kidlaydi. V.D.Simonenkoning “Umumiy va kasbiy pedagogika” kitobida ijtimoiy kompetensiyalarga alohida o‘rin ajratilib, “mutaxassisning madaniyatlararo va tarmoqlararo bilimlar, ko‘nikma va malakalarining turli kasbiy jamoalarda ishlab chiqarish faoliyatida uyg‘unlashuvi”

sifatida belgilangan. Tadqiqotchi olim N.Muslimovning fikricha, kompetentlik – bu talabning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi.

Mazkur o‘rinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to‘la ochiladi, u quyidagi ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

- kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatleri to‘plami
- kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida.

Yuqoridagi ta’riflarning tahlili shundan dalolat beradiki, ko‘nikma va qobiliyatlar (faoliyat komponentlar) bilan bir qatorda ijtimoiy kompetensiya tarkibiga kognitiv tarkibiy qismlar (tushunish, ifodalash, tahlil qilish va h.k), shuningdek, shaxsning fazilatlari ham kiradi. Ta’lim sohasidagi kompetensiyaga asoslangan yondashuvning konseptual qarashlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy pedagogikada “boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatda, oilani, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va farzandlarni tarbiyalashda “ongli” va o‘zlarining ijtimoiy – pedagogik imkoniyatlarini amalga oshirish qobiliyati” deb hisoblaydi”. Shu jihatdan N.Y.Rajinovning ijtimoiy kompetensiyaning asosiy ko‘rsatgichi, assertivlik, ya’ni shaxsning o‘ziga ishonchi (ishonchsizligi) ekanligi to‘g‘risidagi fikri diqqatga sazovor, deb bilamiz. Psixologik adabiyotlarda “kompetentlik” tushunchasi hatti–harakatlarning xususiyatlari, shaxs faoliyatining dominant shakli, hayot faoliyati to‘g‘risidagi hozirgi bilim darajasi bilan bog‘lab talqin qilinadi. Shu bilan birga, kompetentlikning tabiatini psixologik tushunish asosan belgilangan shaxsiy sifatiga – fazilatiga qaratilgan. S.N.Krasnokutskayaning ta’kidlashicha, ijtimoiy kompetensiya shaxs ijtimoiylashuvning ajralmas qismi bo‘lib, bu ijtimoiy rollarning o‘zgarishiga dosh bera oladigan shaxsning boshqalar bilan hamkorlik qilish, aloqalar o‘rnatish, oson moslashuv, o‘zgarishga tayyorlik, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z harakatlarining oqibatleri uchun ijtimoiy javobgarlikni o‘z zimmasiga olish qobiliyatini ko‘zda tutadi.

Yoshlarni ijtimoiy kompetentligini shakllantirish yo'nalishlari

Bo'lajak pedagog-o'qituvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning tamoyillarini quyidagicha belgilash mumkin:

Birinchi, ijtimoiy kompetensiya – bu ijtimoiy, psixologik va pedagogik fanlar majmuida shakllantiriluvchi murakkab ijtimoiy pedagogik fenomen. Bunda bo'lajak pedagog shaxsining ijtimoiy kompetensiyalari uning muvaffaqiyatli faoliyati asosidir. Chunki u ijtimoiy xatti– harakatlarning etarlicha tanlovini va shaxsga xos bo'lgan ijtimoiy rollarni bajarish samaradorligini ta'minlaydi. Pedagogik faoliyatning ijtimoiy mohiyatini hisobga olgan holda, ijtimoiy kompetentlik o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining asosidir.

Ikkinchi, o'qituvchida ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishning maqsadi - uning atrofimizdagi olamga, Vatanga, odamlarga, tirik va jonsiz tabiatga, moddiy va ma'naviy qadriyatlarga hayotiy pozitsiyasini shakllantirish – insoniy munosabatlarni rivojlantirishdir. Ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishning mohiyatida ijtimoiy siyosiy, ma'naviy ma'rifiy, iqtisodiy, estetik qadriyatlar va o'z-o'zini rivojlantirish mavjud bo'ladi.

Uchinchi, pedagoglarda ijtimoiy kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun talabalarning ijtimoiy–madaniy muhiti, oilasi, jamoaviy munosabatlarini o'rganish zarur.

To'rtinchi, ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishda ushbu jarayonning ochiq ijtimoiy-pedagogik tizimga aylanishi, professor-o'qituvchilarning yuqori kasbiy darajasi va oliy ta'lim muassasasidagi ijtimoiy ma'naviy muhit katta ahamiyat kasb etadi.

Beshinchi, bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishda talabalarning hayotiy qadriyatlarini tavsiflash, ochiqlik, muloyimlik, bag'rikenglik, o'zaro mehr oqibatlilik, fuqarolik fazilatlar, axloqiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar, milliy g'oya, kasb tanlash motivlari, o'z o'zini tarbiyalash, ijtimoiy moslashuv va ijtimoiylashish darajasi, ijtimoiy harakatchanlik va faollik kabi omillar e'tiborga olinishi zarur. Raqobatbardosh, zamonaviy bilimli va yuksak ma'naviyatli mutaxassislar uchun zarur hisoblangan kompetensiyalarga

bugungi kunda ijtimoiy, kommunikativ, ijtimoiy–informatsion, kognitiv va maxsus kompetensiyalar kiradi. Bunda ijtimoiy kompetensiyalarning etakchi o‘rni e’tirof etiladi.

Jamiyat va madaniyatning rivojlanishi bugungi kunda ta’lim va tarbiya ishlarining qanday tartibda amalga oshirilayotganligiga bog‘liq. Bu esa davlat ahamiyatiga ega ijtimoiy qonuniyatdir. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, biz yoshlarni chuqur bilimli bo‘lib yetishishimiz bilan bog‘liqligini unutmagan holda mahoratli edagoglarni shakllantirishni asosiy maqsad qilib belgilab olishimiz zarur. Hozirda respublikamizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning taqdiri yoshlarning ma’naviy kamoloti, intellektual salohiyati va kasbiy fazilatlariga bog‘liq. O‘z malakasini doimiy va mustaqil ravishda oshirib boradigan, har qanday masalaga ijodiy yondashib, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan barkamol avlodni tarbiyalash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab qo‘yilgan. Axborot texnologiyalari asrida yashayotganimizga qaramasdan ta’lim jarayonida hali ham zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalana olmayotgan pedagoglarni uchratamiz. Ko‘plab pedagoglarimiz faoliyati faqat ma’ruza bilan cheklanib qolmoqda. Bo‘lajak pedagoglar o‘z oldilariga ta’lim jarayonini interfaol metodlar, multimedia, slayd, audio-video vositalari bilan boyitish uchun o‘zlarida texnologik kompetentlikni, mahoratni shakllantirishni maqsad qilib olishlari shart.

Buyuk rus pedagogi Y.A.Komenskiy “Eshitsam unutamani, ko‘rsam eslab qolaman, bajarsam anglab yetaman” deb bejiz ta’kidlamagan. Oliy ta’lim sifatini yaxshilash barkamol avlodga ta’lim-tarbiya beruvchi bo‘lajak pedagoglarni har tomonlama yetuk kadr bo‘lib yetishishlarini kafolatlaydi. Bunga sabab, pedagogik kasb bir vaqtning o‘zida ham islohotchilik, ham boshqaruvchilik kasbidir. Shaxs kamolotini boshqarish uchun kompetent bo‘lish lozim. Shuning uchun ham o‘qituvchining kompetentligi tushunchasi uning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi bilan bir qatorda yuksak mahoratini ham ifodalaydi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasida “Yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega” ekanligi ko‘rsatilgan. Bugungi zamonaviy

ta'lim tizimiga ahamiyat beradigan bo'lsak, pedagoglarning mahorati uning kompetentligi ta'limni sifatli amalga oshirish garovi ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kompetensiya - muayyan fan boyicha talaba egallagan nazariy bilim , ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan nazariy va amaliy masalalarni yechishda foydalanib , amaliyotda qo'llay olishidir. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish boyicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda

Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;

- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi

Ijtimoiy kompetensiya jamiyatda bo'layotgan voqea yoki hodisa, jarayonlarga dahldorlikni his qilish va ishtirok etishni ifodalaydi. Kasbiy mavqeyining o'sishiga intilish ham ijtimoiy kompetentlikning bir bo'lagi hisoblanadi. Ijtimoiy-pedagogik kompetentlik ta'lim tizimini boshqarish uchun muhim. Kompetentlikni "tajribaga ega bo'lgan kishi", "yaxshi biladigan inson" kabi ma'nolarni bildirishi eski adabiyotlarda ko'p izohlangan. Hozirda esa kompetentlik ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan vaziyatlarda, kutilmagan holatlarda o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishuvchanligi, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanishga egalikni anglatadi. Pedagog olim N.A.Muslimov ta'kidlab o'tganidek, "o'qituvchining kasbiy shakllanishi uning jamiyatdagi o'rni, talabaning oliy pedagogik ta'lim muassasasidagi majburiyatlari va vazifalariga bog'liq bo'lib, talabaning o'rni nisbiy tavsifga ega, biroq uning o'quv jarayonida ishtiroki, o'quv vazifalarining ma'lum minimumini bajarish kabi ma'lum belgilarga ega".

Hozirga kunda shu narsa ravshanki, jahon miqyosida globallashtirish jarayonlarining chuqurlashib borishi har bir davlat, millat va etnik guruh vakillariga, jumladan, yoshlar ongiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bunda axborot oqimlarining tezlashuvi, ularni olish manbalarining turli-tumanligi har xil turdagi g'oyalar, mafkuraviy va madaniy oqimlarning keng tarqalishiga sharoit yaratib bermoqda. Buning ustiga, yuqori malakali ishchi kuchini takror hosil qilishning eng asosiy va istiqbolli segmenti bo'lgan oliy o'quv yurtlari talabalarining turli xil axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatlariga egaligi ularni bunday oqimlarning salbiy ta'sirlaridan himoya qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu sababdan ham har bir oliy ta'lim muassasasi o'z bitiruvchilarining kasbiy mahorati bilan birga ularning ijtimoiy kompetentligini shakllantirishga intilishi lozim bo'lib, bunday dolzarb muammoni ijobiy darajada hal qilish OTM ning ta'lim muassasasi sifatidagi nufuzi ortishiga olib keladi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, oliy ta'lim muassasalarini bitirib chiqayotgan bo'lajak mutaxassislarni davlat va jamiyat hayotida hukmron bo'lgan

